

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI  
BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

**RAHIMOVA NARGIZA MEXRIDDINOVNA**

**“Abdulla Avloniyning pedagogik risolalarini o'qitishda interfaol  
usullardan foydalanish”**

5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviyish yo'nalishi  
bakalavri darajasini olish uchun yozilgan  
bitiruv malakaviy ishi  
(2018-2019- o'quv yili)

|                  |                                       |
|------------------|---------------------------------------|
| Ilmiy rahbar:    | PhD, dotsent M.Y. Ro'ziyeva           |
| Rasmiy opponent: | PhD, katta o'qituvchi H.Ch. Nusratova |

BUXORO – 2019

## **REJA:**

### **KIRISH:**

- bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi;
- bitiruv malakaviy ish mavzusining o'rganilganlik darajasi;
- tadqiqot maqsadi;
- tadqiqot ob`yekti;
- tadqiqot predmeti;
- tadqiqot vazifalari;
- tadqiqot metodlari;
- tadqiqotning metodologik asoslari;
- bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi;
- bitiruv malakaviy ishining ilmiy – amaliy ahamiyati;
- bitiruv malakaviy ishning tuzilishi.

## **I BOB. ABDULLA AVLONIY ILK MAKTAB DARSЛИKLARI YARATUVCHISI**

I.1 Abdulla Avloniyning hayot faoliyati va ijodiy merosi

I.2 Yozuvchi asarlarining badiiy xususiyatlari

## **II BOB. ILK MAKTAB DARSЛИKLARI YARATILISH TARIXI, PEDAGOGIC ASOSLARI**

II.1 O'zbek alifbesining yaratilish tarixi va muammolari

II.2 A.Avloniyning Ilk maktab darsliklarida pedagogik qarashlar

## **XULOSA**

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## K I R I S H

**Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi.** Milliy istiqloлга erishib, har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimiz ma`naviyatini yanada rivojlantirishda millatimiz tarixini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarning alohida o'rni bor. O'zbek adabiyoti bunday asarlarga boydir. Ular yosh avlodni barkamol qilib voyaga etkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan, taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she`rlar” hamda “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni” kabi darslik va o'qish kitoblari ham xarakterli bo'lib, yaxlit bir tadqiqot uchun manba bo'la oladi.

Ayniqsa, uning ilk savod chiqarishda bilim va tushunchalarni bolalar ongiga sodda va tushunarli yetkazishi alohida e`tiborni tortadi. Shuni inobatga olib, bu asarlarni jiddiy o'qib chiqish va unda ilk darslikka xos tuzilmani, g'oyaviy to'liqlikni, kitoblardagi o'ziga xos xususiyatlarni monografik yo'nalishda o'rganib chiqish zarur. Zero, hozirgi ijodiy erkinlikdan foydalanib yaratilayotgan qator boshlang'ich sinf darsliklari mualliflari darslik yaratishda ulug' adib tajribasidan foydalansalar, yosh kitobxon qalbiga kirib borishlari oson bo'ladi. Shu asosda Abdulla Avloniyni ilk maktab darsliklari mukammal yaratuvchisi, mohir pedagog sifatida o'rganilganligi, asarlaridagi g'oyaviy-badiiy mushohadalarni tadqiq qilinganligi bitiruv ishining dolzarbligini belgilaydi. Qolaversa, bitiruv malakaviy ishimiz mavzuining dolzarbligi Abdulla Avloniyning ham pedagogik ,ham badiiy ijodkorlik mahoratini mavjud ilmiy manbalar va tarixiy asarlar asosida qiyosan o'rganish bilan ham belgilanadi.

Shu yilning 3 avgust kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev mamlakatimizning ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi. Ushbu uchrashuvda madaniyat va san'at sohasida yuzaga kelgan ko'plab muammolar o'rta ga tashlandi, ayni paytdagi ijodiy jarayonlar muhokama qilindi.

Mazkur yig'ilishda madaniyat, ommaviy axborot vositalari adabiyot va san'at sohasini tubdan isloh qilish maqsadida amalga oshiriladigan keng miqyosli ishlar xususida so'z bordi, yosh iste'dodlar tarbiyasi, madaniyatimiz va adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida yangi g'oya, tashabbus va takliflar bildirildi. "Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o'ta muhim masala borki, unga alohida to'xtalib o'tishni zarur deb bilaman. U ham bo'lsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liqdir. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatan ham yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir va o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan, ta'bir joiz bo'lsa, masalalarning masalasidir"<sup>1</sup>.

Shu ma'noda, bugungi kunda Abdulla Avloniy yozgan asarlarining bolalar adabiyotida tutgan o'rni, o'ziga xos xususiyatlari, muallifning darslik yaratishdagi harakatlari, uning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langanligi, adibning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi.** Abdulla Avloniy ning maktab uchun yaratgan asarlari nafaqat badiiy, balki noyob tarixiy- pedagogik, ta'limiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. So'nggi yillarda buyuk donishmandlik majmuasi bo'lmish bu asarlarni o'rganishga qiziqish ayniqsa kuchaydi. Sharq mutafakkirlari asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir karra shunga iqror bo'lamizki, ular asarlarida mangu kitoblarida ifoda etilgan buyuk g'oyalar, falsafiy pedagogik hikmatlar o'zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi. Darhaqiqat, Abdulla Avloniy asarlarining tub ma'no–

---

<sup>1</sup> Sh.M.MIRZIYOYEV Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. - Sharq yulduzi jurnali elektron sayti // <http://jahonadabiyoti.uz/2017/12/07>

mohiyatini belgilab beradigan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik g'oyalari va ahloq-odob tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini alohida ta'kidlab o'tmoq joizdir.

O'zbek adabiyotshunosligida taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniyning badiiy ijodi, asarlarining o'ziga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, shuningdek, uning pedagogik mavzudagi asarlari haqida ba'zi ishlar qilingan, mulohazalar bildirilgan. Masalan, adibning bolalar adabiyotiga qo'shgan ulushi haqida R.Barakaevning “O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi<sup>2</sup>” nomli monografiyasi e'lon qilingan. Bu kitobda olim taniqli adibning bolalar adabiyotini yuksaltirish uchun chekkan zahmatlarini birma-bir ko'rsatib o'tgan.

Abdulla Avloniy haqida juda ko'p olimlarning ishlari bor. Jumladan, Begali Qosimov adib haqida bir adabiy portret bilan bir ilmiy risola e'lon qilgan. Yana u U.Dolimov bilan hamkorlikda “Sharafli hayot<sup>3</sup>” maqolasini asarini yozgan.

Adibning qizi X.Avlonova “Dadam haqida: (Abdulla Avloniy haqida)<sup>4</sup>” maqolasini e'lon qilgan. Shuningdek, H.Azimova, A.Bozorov, M.Rahmonov, T.Tursunov, Z.Eshmurodova, D.Qosimov, K.hoshimov kabi bir qator olimlar ham Abdulla Avloniy haqida maqolalar e'lon qilishgan.

Tohir Malik Qaldirg'och qissasida Asadullo Mira'lam deb tanishtirgan qahramon aslida Abdulla Avloniydir. Asarda adibning o'tgan asr boshidagi xalq tafakkurini o'stirishda qo'shgan hissasi, yangi usul maktablarining ochilishidagi jonbozliklari uning prototipi orqali ifodalangan.

Biroq Abdulla Avloniy aksariyat asarlarda jadid, milliy teatr asoschisi, shoir va mohir yozuvchi sifatida tahlil qilinadi. Adibning pedagogic qarashlari, mohir o'qituvchilik faoliyati hali hamon tadqiq nazaridan tashqarida qolmoqda. Bu sohada Abdulla Avloniy asarlarida yoshlarni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning pedagogik talqini bayon etilgan

<sup>2</sup> R.Barakaev. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T. Adabiyot nashriyoti, 1998 y, 134 b/

<sup>3</sup> Qosimov B, Dolimov U . Sharafli hayot. T., G'.G'ulom nashriyoti, 1987 120 b

<sup>4</sup> X.Avlonova “Dadam haqida. T. O'qituvchi, 1986. 78 b.

S.Nishonova, O.Musurmonova, U.Mahkamov kabi ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlari shu jihatdan e'tiborga loyiqdir.

**Tadqiqot maqsadi:** Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan darsliklarining mundarijasini, uning o'ziga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini, tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish ishning asosiy maqsadini tashkil etadi.

**Tadqiqot obyekti:** Abdulla Avloniyning ilk maktab darsliklarining pedagogik va badiiy xususiyatlarini o'rganib, boshlang'ich sinflarda o'qitish orqali o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Tadqiqot predmeti:** Adib yaratgan darsliklarning hozirgi maktab darsliklari bilan o'xshash va farqlilik darajasini belgilab olish, shoir ijodining maktabda o'rganilish darajasiga diqqat qaratish. Shular asosida Abdulla Avloniyning bolalarga atalgan she'rlarini mavzuviy-g'oyaviy, badiiy dolzarbligi, ta'lim-tarbiyaviy, axloqiy ahamiyatini ko'rsatib berish.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.** Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari, o'zbek milliy maktabini yaratishda muhim ahamiyati, ilk darsliklar yaratuvchisi sifatidagi o'rnini belgilab berish

- Abdulla Avloniyning bolalar adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan ulushini baholash;
- adibning “Adabiyot yoxud milliy she'rlar” ,“Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Ikkinchi muallim”kabi asarlari yaratilishiga asos bo'lgan ijtimoiy-tarixiy omillarni aniqlash;
- “Adabiyot yoxud milliy she'rlar” ,“Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Ikkinchi muallim” asarlarida maktab, ilm va o'quvchi obrazlarining tarixiy va badiiy qirralarini ochib berish;
- darsliklarining mundarijasini o'rganib chiqish;
- Abdulla Avloniyning badiiy mahoratini tadqiq qilish;
- yozuvchi asarining kompozitsion xususiyatlarini, lingvopoetik belgilarini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning metodi.** Ishning maqsad va vazifasi taqozosiga ko'ra tadqiqotda tarixiy- qiyosiy metoddan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy-

metodik manbalarni tahlil qilish, ilgor pedagogik tajribalarni o`rganish va umumlashtirish, anketa, test, mashq, pedagogik tajriba natijalarini statistik tahlil qilish usullariga tayanildi.

**Tadqiqotning metodologik asoslari.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish, an'anaviy qadriyatlar tizimini tadqiq va targ'ib etish borasidagi nazariy qarashlari dissertatsiyaning metodologik asosini tashkil etadi. SHuningdek, ishda nazariy xulosalar yaratishda N.Karimov, B.Nazarov, S.Mirvaliev, B.Qosimov, SH.Rizaev, M.Jumaboev, R.Barakaev, Y.Abdullaev va boshqa adabiyotshunoslarning ilmiy asarlarida bayon qilingan nazariy xulosalarga asoslanildi.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi.** Ushbu ishning ilmiy yangiligi, avvalo, o'zbek adabiyotshunosligida yaratilgan ilk darsliklar sifatida Abdulla Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she'rlar”, “Birinch muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Ikkinchi muallim” asarlari tabiatini, badiiyatini, obrazlar olamini, o'ziga xos g'oyaviy mundarijasini ilk bor monografik jihatdan yaxlit tadqiq etishga bag'ishlanayotgani bilan belgilanadi.

Ishda bu asarning bolalar adabiyoyotida tutgan o'rni, o'ziga xos xususiyatlari birinchi marta maxsus tadqiq etildi. Unda muallifning darslik yaratish uchun foydalangan asarlari, asos bo'lgan manbalari aniqlandi.

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langanligi, uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilgani asoslab berildi. Shular ishning muhim ilmiy nazariy yangiligidir.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ushbu tadqiqotning nazariy umumlashmalari ilk maktab bolalari saviyasiga mo'ljallab yoziladigan asarlarning o'ziga xos xususiyatlarini, tarixiy shaxslarning badiiy obrazlari evolyutsiyasi va tipologiyasini, epik va badiiy ifodasiga xos belgilarni keng ko'lamda tadqiq etishga imkoniyat yaratib beradi.

Mazkur ilmiy ishning nazariy xulosalari va natijalaridan oliy o'quv yurtlarida o'zbek bolalar adabiyoti fani bo'yicha maxsus kurs o'tishda, ma`ruzalar o'qishda, darslik, o'quv qo'llanmalari va dasturlar tuzishda, bitiruv va kurs ishlari yozishda, akademik litsey va kollejlarda, o'rta maktablarda Abdulla Avloniy hayoti va ijodini o'rganishda keng foydalanish mumkin. Bu esa ishimizning o'ziga xos amaliy ahamiyatini belgilaydi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi.** Ishimiz kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Mavzuning hajmi 70 bet.

## I BOB

### ABDULLA AVLONIY ILK MAKTAB DARSЛИKLARI YARATUVCHISI

**I.1 Abdulla Avloniyning hayot faoliyati va ijodiy merosi.** Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, mayda hunarmand-to'quvchi oilasida dunyoga keldi. Ota-onasi savodli kishilar bo'lganlar. Abdulla Avloniy eski usul maktabini tamomlagandan keyin 12 yoshida madrasaga o'qishga kiradi. U yozda ishlab ota-onasiga yordam qilar, boshqa vaqtlarda o'qir edi.

Abdulla Avloniy o'z tarjimai holida yozishicha: «1885 yildan boshlang'ich maktabda o'qidim. O'qchi mahallada Akromxon domladan xat-savodim chiqdi. 1890 yilda maktabni bitirib, mahalladagi madrasada dars o'qiy boshladim. Yoshim 13ga yetgach, yo'qsullik menga ta' sir qildi. Yoz kunlarida mardikorlik qilib, ota-onamra biroz yordamda bo'lib, qish kunlarida o'qir edim. So'ngra O'qchi mahalladagi domlamizning kam havsalaligidan, o'quvda davomsizligidan O'qchi madrasasini tark qilib, 14 yoshimda Shayxantavurdagi Abdulmalikboy dahasiga kelib, Mullo Umar Oxunddan dars o'qiy boshladim. Bu chog'larda ham qish kunlarida o'qib, yoz kunlarida mardikor ishlamoqqa majbur edim».

O'ta iqtidorli bo'lgan Abdulla Avloniy 15 yoshida she'rlar yoza boshladi. U 1894 yildan boshlab she'rlar yozishga kirishgan bo'lsa-da, biroq yoshlik davrida yozgan she'rlari bizgacha saqlanmagan. Dastlabki she'rlarida va «Hijron» degan maqolasida xalqni yangi usul maktablarida o'qib-o'rganishga targ'ib qildi. Avbdulla Avloniy 1907 yilda «Shuhrat», «Osiyo» nomli yangi gazetalar chiqara boshladi, lekin chor amaldorlari tez orada gazetalarni yoqtirib qo'yadi. Abdulla Avloniy keyinroq «Sadoyi Turkiston» (1914-1915), «Turon» (1917), «Ishtirokiyun» (1918) gazetalarda, «Kasabachilik harakati» (1921) jurnalida muharrir bo'lib ishlaydi. Shundan so'ng, u o'zbek matbuotning zabardast vakili, o'zbek matbuotning asoschilaridan biri sifatida taniladi.

Abdulla Avloniy o'zbek xalqning san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini yo'lga qo'yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedagogdir.

Abdulla Avloniy o'zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo'lib, o'zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913 yilda «Turon» nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi. Biroq bu truppaning professional teatrga aylanishi uchun katta to'siqlar bor edi. Chor hukumatining mustamlakachilik siyosati xalqning ijtimoiy ongining uyg'onishiga yordam ko'rsatuvchi teatrlarning barcha shakllariga qarshi edi. Teatrga ana shunday salbiy munosabatda bo'lgan bir paytda Avloniyning teatr truppasini tashkil qilish va ijtimoiy mazmundagi pyesalarni sahnalashtirishi uning xalq ma'rifati yo'lidagi zo'r jasorati edi. Teatrshunos M.Rahmonov Avloniyning teatrchilik faoliyati haqida shunday yozadi:

«Avloniy truppa uchun «Advokatlik osonmi?», «Pinak», «Ikki muhabbat», «Portug'oliya inqilobi» kabi dramalar yozdi, «Qotili Karima», «Uy tarbiyasining bir shakli», «Xiyonatkor oilasi», «Badbaxt kelin», «Jaholat», «O'liklar» kabi sahna asarlarini tatarcha va ozarbayjonchadan tarjima qiladi»<sup>1</sup>. Ammo bu asarlar nashr qilinmadi.

1916 yili ozarbayjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo Toshkentga kelib, «Turon» truppasi bilan birga «Layli va Majnun» spektaklini qo'yadi. Avloniy bu spektaklda Qaysning otasi rolini ijro etadi. Truppa a'zolari bilan Avloniy 1914-1916 yillari Farg'ona vodiysida gastrollarda bo'ladi.

Abdulla Avloniy 1917 yil to'ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan edi. Abdulla Avloniy ilg'or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag'larga dunyoviy ilmlarni o'qitadigan «Usuli jadid», ya'ni yangicha ilg'or usuldagi maktablar ochdilar va bu maktablarda xalq bolalarini o'qitdilar. Ular o'z millatlaridan yetuk olimlar, bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va bu yo'lda fidoyilik ko'rsatdilar.

Abdulla Avloniy 1907 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi o'quv asbob-jihozlarini o'zgartirdi, o'z qo'li bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag'al kishilarning bolalari bo'lganligi

uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta'minlash maqsadida, do'stlarining ko'magida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi va bu jamiyatga o'zi raislik qiladi. «Nashriyot» shirkati tuzib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» nomli kitob do'konini ochdi. Avloniyning maktabi o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra mashg'ulotlarni sinf-dars tizimi asosida o'z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktablaridan farq qiladi. U o'z maktabida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumotlar beradi.

Abdulla Avloniy 1917-yil to'ntarishidan keyin, 1918 yildan boshlab respublikamizda o'qituvchilar uyushmasi, qrovullar, tunukachilar, ko'nchilar, hunarmandlar va bosmaxona xodimlarining kasaba uyushmalarini tashkil qilib, ularga rahbarlik qiladi. Sobiq eski shahar ishchi dehqon Sovet Ijroiya Komitetiga rais qilib saylanadi. Avloniy Turkiston respublikasi milliy Komissariyatining mas'ul xodimi sifatida milliy urf-odatlar va yangicha madaniy normalar hamda qonunlarga doir masalalar bilan shug'ullanadi.

1919-1920 yillarda Avloniy Afg'onistonning Hirot shahrida Sovet elchixonasida bosh konsul bo'lib ishladi. Xalqimiz o'rtasida birodarlikni mustahkamlash sohasidagi olib borgan ishlari uchun Afg'oniston shohi Omonullaxon tomonidan kumush soat bilan taqdirlandi. Bular Avloniyning tariximizdagi o'ziga xos o'rni borligini ko'rsatadi. 20-yillarda Avloniy turli ijtimoiy vazifalar bilan birga muallimlik kasbini ham davom ettirdi, savodsizlikni tugatishda faol qatnashdi. Abdulla Avloniy 1920 yildan boshlab Toshkentda tashkil qilingan o'lka bilim yurtida, so'ngra xotin-qizlar bilim yurtida mudirlik qildi. U xalq maorif institudida, turkfront harbiy maktabida (harbiy bilim yurti) o'qituvchi bo'lib ishladi. 1924-29 yillarda O'rta Osiyo Davlat universitetida (SAGU) va boshqa oliy o'quv yurtlarida o'qituvchilik qilish bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordi.

Abdulla Avloniy yangi adabiyot dasturi asosida 1933 yilda o'zbek maktablarining VII sinflari uchun «Adabiyot xrestomatiyasi» tuzdi.

Abdulla Avloniy XIX asr rus mumtoz adabiyoti vakillari I.A.Krilov va L.N.Tolstoyning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan, jumladan, I.A.Krilovning

21ta masali, «Maymun ila ko'zoynak», «G'ayri jinsiy ittifoq», «It ila yo'lovchi», «Qarg'a ila Zag'izg'on», «Tulki ila Qarg'a» kabi asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, «Maktab gulistoni» kitobida bosilib chiqqan.

Ma'rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy she'riyatida markaziy o'rin egallaydi. Shoir ilm-fanning fazilatlarini zavq bilan kuylaydi. «Maktab», «maorif», «ilm», «fan» kabi tushunchalar shoir she'rlarida ezgulikning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko'tariladi, «jaholat» va «nodonlik» esa zulmat va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Uning pedagogik qarashlari bugungi kunda o'zbek milliy maktabini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Avloniy ijodiy merosini chuqur o'rganishga qiziqish ortib bormoqda.

Abdulla Avloniyning mehnati yuksak taqdirlanib, unga o'zbek madaniyati va adabiyotini yuksaltirishda, xodimlar tayyorlashda, uzoq yillik halol mehnati uchun 1925 yilda «Mehnat qahramoni» unvoni, 1930 yilda mehnatsevarligi, ilmiy ishlari va asarlari uchun «O'zbekiston maorifi zarbdori» unvoni berildi.

Abdulla Avloniy 1934 yilning 25 avgustida Toshkentda vafot etdi.

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda Avloniyning siymosi, faoliyati biz uchun qadrlidir.

Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'alarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog, olimdir.

Abdulla Avloniy xalq orasida ilg'or fikrlarni tarqatishda, ilm va ma'rifatni tashviq qilishda gazeta, jurnallarning roli g'oyat katta ekanligini yaxshi bilar edi. U 1907 yili «Shuhrat», «Osiyo» nomli gazetalar chiqarib unga muharrirlik qiladi. Gazetaning birinchi sonida matbuotning roli, gazetaning vazifasi haqida fikr yuritib, «Matbuot har insonga o'z holini ko'rsatuvchi, ahvol olamdan xabar beruvchi, qorong'i kunlarni yorituvchi, xalq orasida ilm, ittifoq, himmat

g‘oyalari»ni yoyuvchidir deb, baliqning suvsiz yashamog‘i mumkin bo‘lmagani kabi insonning ham ilmsiz yashamog‘i mumkin emasligini uqtiradi.

XX asr boshlarida O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida pedagogik fikrlarning rivojida Abdulla Avloniy alohida o‘rin egalladi, butun faoliyati davrida u o‘z xalqiga xizmat qiladigan komil insonni yetishtirish, uning ma'naviyatini shakllantirishga alohida e'tibor berdi.

Abdulla Avloniy «Usuli jadid» maktablari uchun to‘rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» hamda «Birinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Ikkinchi muallim» (1915), «Maktab gulistoni» (1917) kabi darslik va o‘qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug‘lab, o‘z xalqini ilimli, madaniyatli bo‘lishga chaqiradi.

XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning «Birinchi muallim»i ham o‘ziga xos o‘ringa ega; «Birinchi muallim» 1917 yil to‘ntarishiga qadar 4 marta nashr etilgan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval»iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi).

Avloniyning «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinchi muallim» kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobini, shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobini xrestomatiya deb atasak joiz bo‘lar, desak xato bo‘lmas.

Kitob maktabni olqishlovchi she'r bilan boshlanadi:

Maktab sizi inson qilur,  
 Maktab hayot ehson qilur,  
 Maktab g‘ami vayron qilur,  
 G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!  
 Maktabdadur ilmu kamol,  
 Maktabdadur husnu jamol,  
 Maktabdadur milliy xayol,  
 G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!

Bu she'rda Avloniy maktabni insonning najot yo'li, hayotning gulshani, kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch, deb maqtaydi.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida «Turkiy guliston yoxud axloq» asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir.

«Turkiy guliston yoxud axloq» asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni «yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi» bir ilm-axloq haqida fikr yuritiladi.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib «Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabidur», - deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga ega.

O'zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga «Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasining fanidir», deb ta'rif berdi. Tabiiy bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to'rt bo'limga ajratadi: 1. «Tarbiyaning zamoni». 2. «Badan tarbiyasi». 3. «Fikr tarbiyasi». 4.«Axloq tarbiyasi» haqida hamda uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritadi.

«Tarbiyaning zamoni» bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi.

«Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidur» deb uqtiradi, Avloniy.

Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblaydi adib.

Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan - uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilishi lozimligini uqtiradi.

Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir».

Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog'lom qilib o'stirishda otalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o'qituvchilarning faoliyatlariga alohida e'tibor beradi.

«Turkiy guliston yoxud axloq» kitobi ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qiladi. Abdulla Avloniy kitobda ilm to'g'risida bunday deydi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy, muqaddat bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilmoq, ... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur...». Avloniy ilmni umuman emas, balki uning amaliy va hayotiy foydalarini aytib, «Bizlarni jaholat, qorong'ulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... Alhosil butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'lidir»<sup>2</sup>.

Adibning obrazli ifodasiga ko'ra, ilm bamisoli bodomning ichidagi mag'iz. Uni qo'lga kiritish uchun mehnat qilish, ya'ni chaqib uni po'chog'idan ajratib olish kerak.

U ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u, yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa,

xalq farovonligi yo'lida qo'llanmasa, u o'likdir. A.Avloniy o'z ilmini amalda qo'llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar, deb ataydi.

Abdulla Avloniy o'tmish mutafakkirlari kabi yoshlarni foydali kasb-hunar egallashga chaqiradi. Adib boylik ketidan quvuvchilarni, ularning odamgarchilikka to'g'ri kelmaydigan ishlar bilan shug'ullanayotganini ko'rib, ulardan nafratlanadi.

Avloniyning xalqni ma'rifatga tashviq qilganidan dalolat beruvchi misralaridan biri quyidagidir:

Idrok ila aqling-la ayur yaxshi-yomonni,  
Behudaga sarf etma, shu qimmatli zamonni.  
Sa'y et, jadal et, ilmu fununa harakat qil,  
Boq, nayladilar hikmat ila ushbu jahonni<sup>8</sup>

Abdulla Avloniy o'z ona tilini mukammal bilish, har bir so'zni o'z o'rnida ishlatish, milliy adabiy tilining taraqqiysi uchun jonkuyarlik qilish zarur, - deydi. «Har bir millatning dunyoda borligin ko'rsatg'on oynai hayoti: til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmoqdur.

Xullas, Avloniy hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmoq uchun ilm va ma'rifatni egallashimiz kerak degan shiorni o'rtaga tashlaydi. Mashhur o'zbek ma'rifatparvari, shoiri va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkentda hunarmand oilasida tug'ilgan. Eski maktabda savod chiqardi, madrasada tahsil oldi. Oiladagi moddiy qiyinchiliklar tufayli bolaligidan odamlar eshigida mehnat qildi, g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik, binokorlik kabi kasblar bilan shug'ullandi, «Imoratchi usta» degan nom oladi. Abdulla Avloniy she'rlari 15 yoshidan boshlab matbuotda ko'rina boshladi. Jadidchilik harakati rahbarlaridan biri bo'lgan Avloniy 1904 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktabini, 1909 yilda «Jamiyati xayriya» uyushmasini tashkil etadi. 1905-1917 yillarda matbuotdagi qizg'in faoliyati, ko'plab publitsistik maqolalari bilan «bir yoqdan milliy islohot uchun mafkura hozirlag'on, ikkinchi yoqdan el orasiga o'zgarish tuxmini sochg'on» ham( Abdulla Avloniy bo'ldi. Avloniy o'zi nashr etgan «Shuhrat» (1907) nomli gazetasi faoliyatini shunday baholagan edi.

U Turkistonda birinchilardan bo'lib maktabga geografiya, kimyo, xandasa, fizika fanlari kiritilishiga ta'sir ko'rsatdi, ta'limni real turmush bilan bog'lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o'rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtihonni joriy etdi, ta'lim tizimining dunyoviy yo'nalishini kuchaytirishga alohida e'tibor berdi. Uning «Birinci muallim» («Muallimi avval», 1909), «Ikkinchi muallim» («Muallimi soniy», 1912) nomli darsliklari, «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Gulistoni maktab» (1917), «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» (1909-1916, 6 qism) kabi qo'llanmalari maktablarda o'qitilgan.

Avloniy «Turon» (1917) gazetasiga «Yashasin xalq jumhuriyati» degan shiorni tanladi, «Turon» nomli teatr to'garagini tashkil etib, iqtidorli yoshlarni to'pladi, ayrim rollarni ijro etishda o'zi ham qatnashdi. Shoir Afg'onistonda elchi bo'ldi, turli o'quv yurtida dars berdi. Abdulla Avloniyning Hijron, Nobil, Indamas, Shuhrat, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chegiboy degan taxalluslari bo'lgai. U 1934 yil 24 avgustda Toshkentda vafot etdi. Avloniy ijodi bo'yicha Begali Qosimov ilmiy izlanishlar olib borgan.

Asarlari: «Advokatlik osonmi» (1914), «Pinak» (1916), «Biz va siz» (1917), «Portugaliya inqilobi», «Ikki muhabbat», «Bo'ron» kabi pesalari, «Tulki ila qarg'a» masali, «Mardikorlar ashulasi», «Vatan» (1916), «Maktab», «Bog'cha», «Yalqov shogird tilidan», «Tog'lardan bir manzara», «Millatga xitob», «Ishchilara tortuq», «Ko'klam keldi», «Tovush» kabi she'rlari, «Maqsad va maslak» (1908 yil 9 aprel), «Holimizga doir» (1908 yil 14 fevral) kabi maqolalari, «Hasad balosi» majoziy hikoyasi va boshq.

#### «Turkiy guliston yoxud axloq» asari haqida

«Turkiy guliston yoxud axloq» 1913 yilda yozilgan bo'lib, u axloqiy-ta'limiy asardir. Muallif bu kitob boshlanishiga «Man xastayamu millatim o'lmish nega bemorq» degan ritorik so'roq qo'ygan va asar davomida ushbu savolga javob berishga harakat qilgan. «Turkiy guliston yoxud axloq» asari «Axloq», «Tarbiya», «Yaxshi xulqlar», «Yomon xulqlar» deb nomlangan qismlarga bo'linadi.

Asarda diyonat, sa'y va g'ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, sabr, nafs, vijdon, iffat, oliyhimmatlik va shu kabi yuksak axloqiy tushunchalar, zulm, nifoq, ta'ma, xasad, loqaydlik, g'iybat, xaqorat, uyatsizlik, namimat(chaqimchilik), adovat kabi yomon xulqlar millat va vatan saodatiga e'tiborsizlik va bepisandlik bilan bog'langan holda muhim ijtimoiy muammo sifatida talqin etilgan.

«Amerikaliklar bir dona bug'doy ekub, yigirma qadoq bug'doy olurlar. Ovrupolilar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni kelturib, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar! Ammo biz osiyolilar, xususan, turkistonlilar dumba sotub, chandir chaynaymiz. Qaymoq berib, sut oshiyimiz, non o'rniga kesak tishlaymiz!» degan fikrlar ulug' adib Abdulla Avloniy asr boshidayoq vatan ravnaqi, xalq saodati va millatga sodiq farzandlar tayyorlash zarurligi xususida nechog'lik chuqur va teran mushohada yuritganini ko'rsatib turibdi. Bu - o'zlikni anglash, o'z qadrimizga yetish, istiqlolni qo'lga kiritish uchun aytilgan dadil va jasur fikrlar edi.

Abdulla Avloniy shu asarida: «Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatnshng ruhini yo'qotmakdur», - deb ham qayg'uradi. Kezi kelganda muallif hadislarga mo'l-mo'l murojaat etgan, Qur'oni karimdagi ulug' falsafiy kalomlardan unumli foydalangan. Ayniqsa Iskandar, Suqrot, Arastu, Aflotun, Ibn Sino, Mavlono Rumi, Shayx Sa'diy kabi tarixiy shaxslar bilan bog'liq naqlar, ixcham rivoyatlar, hikoyalar asar jozibasiga joziba qo'shgan.

Atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoir, mashhur tarbiyachi Abdulla Avloniy Toshkentda kosib oilasida dunyoga kelgan. U eski maktabda ta'lim oldi. U o'z tarjimai holida yozishicha: «12 yoshimdan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qiy boshladim, 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o'qir edim. 14 yoshimdan boshlab, o'sha zamonga muvofiq har xil she'rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda «Tarjimon» gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim».

Madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug'ullandi. O'qish va o'qitish usuliga isloh kiritib, yangi tipdagi maktab tashkil etgan yosh pedagog o'quvchilarga zamonaviy

bilimlar berish, sharq va g'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi.

Abdulla Avloniy maktablar uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912), «Tarix», «Turkiy guliston va axloq» (1913) kabi zamonasi uchun hodisa bo'lgan darsliklarni yozgan. 1895 yillardan ijodiy faoliyatini boshlagan Avloniy «Qobil», «Shuhrat», «Hijron», «Avloniy», «Surayyo», «Abulfayz», «Indamas» taxalluslari bilan she'r, hikoya, fel'eton va kichik hajmli dramatic asarlar (1900—1917) yaratdi. Shoir o'z she'rlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tanqid qilar va kishilarni bilimga, ma'rifatga chaqirar edi.

Abdulla Avloniy 1917 yilgacha mahalliy xalq vakillarndan yetishib chiqqan yirik jurnalist sifatida Toshkentda «Shuhrat», «Osiyo» kabi gazetalarni tashkil etadi. U «Advokatlik osonmiq», «Ikki muhabbat», «To'y», «S'ezd», «Laylo va Majnun», «O'liklar» kabi dramatik asarlarida jaholat, bid'at, bilimsizlikning fojeali oqibatlarini, qo'pol va yaramas urf-odatlarini fosh etadi.

Abdulla Avloniy shoir sifatida o'nlab, yuzlab she'rlar bitgan. Ular xoh eski urf-odatlar haqida bo'ladimi, xoh muhabbat yoki maktab-maorif haqida bo'ladimi, hamma-hammasida inson va tarbiya, axloqiy go'zallik va ma'naviy boylik haqida kuylaydi. Shuning uchun ham uning she'rlarida xalq didaktikasi bilan yangi zamon pedagogikasi uyg'unlashib ketadi. Jumladan, «O'z mamlakatimizda» she'rida maishat uchun pul-boylikni isrof etgan, ammo bola tarbiyasi uchun ko'zi qiymagan xasislarni «Ilm uchun pulni ko'zlari qiymas»ligini qoralaydi.

Yoki

«Maktab» she'rida: Maktab misni tillo qilur,

Maktab sizni mullo qilur,—

deyish orqali maktab inson uchun zulm, nohaqlik, adolatsizlikdan xalos etuvchi, najot yo'li deb biladi. Ayniqsa, uning «Adabiyot» (1915) kitobi bu jihatdan alohida ajralib turadi.

Xullas, A. Avloniy yozganidek:

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa, Xanjar, olmosday bo'lur o'tkir.

A. Avloniy 1920—1930 yillarda respublikamiz ro'znoma va oynomalarida qator maqolalari bilan faol qatnashadi. U 13-yilda Yevropa usulidagi «Turon» teatr truppasini tashkil etdi, unda o'z asarlari va qardosh xalqlar tillaridan tarjima qilingan qator dramalarni sahnalashtirdi. Abdulla Avloniy o'zbek xalqi maorifi, madaniyati, ma'rifati bilan bir qatorda qo'shni Afg'on xalqi ijtimoiy-siyosiy hayotida ham 20-yillarda muhim rol o'ynagan. U ma'lum muddat Afg'oniston xalq maorifi vaziri, so'ng Sho'rolar ittifoqining Afg'onistondagi konsuli — elchisi vazifalarida xizmat qilgan. Avloniy O'rta Osiyo Davlat universitetida dars berish bilan birga, qator adabiyot darsliklarining muallifi bo'lgan. U 1934 yili 56 yoshida vafot etadi.

**I.2 Yozuvchi asarlarining badiiy xususiyatlari.** Addulla Avloniy arab va fors tillarini yoshlikdagi mustaqil mutolaa vaqtida egallagan. U matbuot ishlarida faol ishtirok etish bilan birga “Adabiyot yoxud milliy she'rlar” nomli to'rt qismdan iborat to'plamning birinchi kitobini “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” deb nomlaydi. Bu asarlardagi o'nlab she'rlar, she'riy hikoya va masallar o'zbek bolalar she'riyatining ilk sahifalarini tashkil qiladi. Jumladan, shoirning “Ikkinchi muallim”dagi “Maktabga da'vat” she'rida muallif bevosita yosh kitobxonga murojaat qilib yozadi.

Shoir ta'kidida tong otishi, uyqudan ko'z ochish vaqti yetganligi o'z va ramziy ma'no kasb etgan. Avvalo, saharda chiqqan quyosh panjaradan mo'ralab, uxlab yotgan bolakayni o'z nurlari bilan erkalab uyg'otishi, shuningdek, tong qushlaru chug'urchuqlar, bolariyu buzoqlarni erta uyg'otib, kundalik “mashg'ulot”iga undagani kabi kichkintoy o'g'il-qizlarga ham kitob-daftarni qo'lga olib, ilm yo'lini izlashga da'vat etayotgani anglashiladi. Bundan tashqari, she'r mazmunida jaholat va g'aflat uyqusidan uyg'onish, o'zligini anglash tuyg'usi ham mavjud. Shoirning “Ikkinchi muallim”dagi “Maktab” she'rida ham yosh kitobxonlar-maktab o'quvchilariga murojaati seziladi:

Maktab uyi-dorul-omon,  
Maktab hayoti jovidon,  
Maktab safoyi qalbi jon,

G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!

She'rdan maktab tinchlik, omonlik uyi, hayot manbai, qalblarga yaxshilik, ravshanlik keltiruvchi joy sifatida tasvirlanishi bilan birga, u axloq-odob uyi, Allohning ehsoni va bir ajib gulshan sifatida talqin etiladi. Muallifning "Maktab gulisnoni" kitobidagi "Maktab" she'rida ham ushbu fikrlar mantiqan davom etadi:

Firdavsi jinon maktab, nodonlarga jon maktab,  
 Bilgan kishiga qadrin, bir dorulomon maktab.  
 Johillarga g'am maktab, yalqovlarga kam maktab,  
 Husnixat kishilarga chin ruhi ravon maktab.  
 Jonim, o'qungiz maktab, boru yo'qingiz maktab,  
 Sizlar uchun, avlodim, bog'u guliston maktab.

Shunga o'xshash, "Maktab" nomli she'r A.Avloniyning "Adabiyot yoxud milliy she'rlardan 2-juzv" kitobida ham uchrashi bejiz emas. Unda maktab ta'rifining yanada yangi qirralari bo'rtib turadi.

Ko'rinadiki, she'rlar mavzu jihatdan bir, ammo ularning talqini, badiiy ifodasi murakkablasha borgan. Birinchi she'rdan shoir yosh kitobxonni o'qishga, ilm-ma'rifatga targ'ib qilsa, ikkinchi she'rdan maktabning kimlarga foydayu qanday kishilarga zarar ekani qiyoslanadi; uchinchi she'rdan esa maktabning alohida manfaatlari xususida emas, umummillat va yurtga keltiradigan foydalari tilga olinadi.

A.Avloniy bolalarga samimiy fikrlarini o'ynoqi satrlarda tasvirlash bilan birga, Vatan va uning qismati bilan bog'liq jiddiy mulohazalarni-da bayon etadi. Jumladan, "Vatan" nomli she'rida ona-yurtning noz-ne'matlari, boyliklari ta'rif-tavsif etiladi. Shu bilan birga, onaday aziz, mushfiq go'sha haqidagi qayg'uli nola yangraydi:

Onamizsan! Bizning mushfiq onamizsan!  
 Javlon urib yashaydurgon xonamizsan!  
 Seni sotmoq mumkinmidur, o'zing o'yla,  
 Tiling bo'lsa, hasratlaring tuzuk so'yla!..  
 Sotib-sotib qoladurmiz g'amga botib,

Boyqush kabi vayronada yotib-yotib.

Vatan har bir kishining tugʻulib oʻsgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tugʻilgan, oʻsgan joyi ni jonidan ortiq suyar. Hatto bu - Vatan hissi - tuygʻusi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon oʻz vatanidan - uyuridan ayrilsa, oʻz yeridagi kabi rohat-rohat yashamas. Maishati talx boʻlur, har vaqt dilining bir goʻshasi oʻz vatanining muhabbati turar.

Biz turkistonliklar oʻz vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik issiq choʻllarini, eskimular shimol taraflarini eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga oʻz Vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz «kishi yurtida sulton boʻlguncha oʻz yurtida choʻpon boʻl», demishlar.

Men ayblik emas, ey Vatanim, togʻlarim,

Bevaqt tashlab ketdim oy, bogʻlarim.

Hijron qilodur meni judoligʻ,

Doʻndi gʻama roʻzu, shabu chogʻlarim.

Hammaga maʼlumdirki, eng muqaddas diniy yerimiz oʻlan Arabistonga bogʻlarini, havlilarini sotub hijrat qilgan hojilarimizning aksari yana oʻz vatanlariga qaytib kelurlar. Buning sababi, yaʼni bularni tortib keturgan quvvat oʻz vatanlarining tufroqlarining mehru muhabbatidir.

Vatan, vatan deya jonim tanimdan oʻlsa ravon,

Banga na gʻam qolur avlodima uyu vatanim.

Gʻubora doʻnsa gʻanim, yoʻq vujud asri vahm,

Charoki oʻz vatanim xokidur goʻru kafanim,

Tugʻub oʻsan yerim ushbu Vatan vujudim xok,

Oʻlursa aslina roje' boʻlurmu man gʻamnok.

Shoir oʻtmishda maʼrifat gulshani boʻlgan yurtimizning jaholat botqogʻiga botganidan afsuslar chekib, vatanimiz tobora vayronaga aylanayotgani, ilm-maʼrifatga oshno boʻlishgina kishilarni bu gʻamdan qutqazishini taʼkidlaydi. Shu maʼnoda shoirning “Ilma targʻib”, “Jaholat”, “Istiqboldan orzularim”, “Millatga salom” sheʼrlari millat farzandlariga xitob tarzida bitilgan. Umuman, A.Avloniy

“Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” kitoblarida yosh kitobxonlar tafakkuriga mos ilm xosiyati va ilmsizlik oqibati to’g’risida pandnoma tarzidagi satrlarni bitgan bo’lsa, “Maktab gulistoni”dagi she’r, hikoya va masallarda ijtimoiy dolzarb muammolarni ham qamrab olishi oydinlashadi. Zero, bunday she’rlarda orqali yosh avlodni ma’rifatga da’vat etish bilan birga, ularni vatanparvar, o’z millatiga, yurtiga sadoqatli qilib tarbiyalash maqsadi ham ko’zlangan.

Kerak tarbiyat yoshlikdan demak,  
Ulug bulsa, lozim kelur gam emak  
Egur bemashakkat kishi novdani,  
Tuguncha erur kuydirib.

(Abdulla Avloniy)

Aksariyati shoirning 1905 yildan keyingi ijodiga mansub bo’lib, milliy-ijtimoiy harakterdadir. Satrlar - shiornamo, deyarli hamma o’rinda da’vat, chaqiriq ruhi hukmron:

Ayo ey sohibi urfon! Vatan bog‘inda faryod et,  
Otib tashla arodin eski odatlarni barbod et.  
Maorifla funun tahsilina qil rahnamolig‘ san,  
Qorong‘uda qolan millatni nuri ilma irshod et.  
Vatan mehri agar bo’lsa - dilingda ishq savdosi,  
Otil nuri maorifga o‘zingni misli Farhod et!.

Millatning ravnaqi emas, yashashi uchunoq ilm kerak. Usiz hozirgi sharoitda tiriklik Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti mumkin emas. Demak, uni egallash lozim. Bu muhim fikr an’anaviy ifodalanmoqda. Ma’rifatga muhabbat e’lon qilinmoqda. Bu birgina Avloniy emas, umuman shu davr she’riyatining xos xususiyatlaridandir. Darhaqiqat, ularning o‘y-fikrini gul-bulbul tashbihi emas, mahbubasini ag‘yor yo‘ldan urgan oshiq kechinmalari ham emas, asr boshidagi aftodahol Turkistonning ayanchli qismati, yildan-yil emas, kundan-kun ajdodlar xotirasini, o‘zligini unutib, tarihdan uzilib borayotgan avlod band qildi. Ular huquqsiz xalq baxtli bo‘la olmasligini angladilar. Xuddi shu sababli Siddiqiy AjziY o‘zining «xushtab’»lik bilan yozilgan ishqiy she’riyatidan voz kechdi, ularni

kuydirib tashladi. Avloniyning 90-yillarda yozilgan, ehgamolki, ishqiy harakterda bo'lgan she'rlarining bizgacha saqlanmay qolganligi sababi shundandir. Bunday hol faqat bizning adabiyotimizda emas, balki boshqa xalqlar adabiyotida ham uchraydi. Masalan, Panamada mustaqillik uchun kurash avj olgan 60-yillarda Modesto Moxikoning:

Ortiq kuylamasman ishq-muhabbatni,  
 Ilohiy she'rlarga bormaydi qo'lim.  
 Vatanda erk va baxt bo'lmagunicha,  
 Ashuvlamiz bitga: Ozodlik yo o'lim!

she'ri jangovar shiorga aylanib ketgan ekan. Avloniy erk va ozodlikni har narsadan baland tutarkan, unga olib boradigan birdan-bir yo'l deb ilm-ma'rifatni bildi. Shu sabab Vatani, xalqi uchun zarracha manfaat yetkazishni o'ylagan kishini ma'rifatga da'vat etdi. Ilm-fanni egallashga, ozgina bo'lsin, xalaqit berishi mumkin bo'lgan har qanday tartiblar, shu jumladan eski o'qitish usuli keskin tanqid qilindi. Ilm-ma'rifat, ayniqsa, Yevropa madaniyati ilhom bilan targ'ib etildi. Lekin bu yerda bir narsani hisobga olish kerak. Rusiya Turkistonni zabt etar ekan, o'zini o'lkaning pushti panohidek tutdi. Mustamlaka hukumati davlat idora usulida, fan-madaniyatda keskin ilgari siljigan Rusiya va Yevropa hayotini ibrat-andoza qilib ko'rsatishga zo'r berdi.

Bular, aksariyat millatning o'tmishi va asriy an'analariga qarama-qarshi qo'yib borildi. Bularning ham-masi millatni ichdan yemirish, o'zligini yo'qotish, pirovard-oqibatda ruslashtirishga qaratilganini dastlabiga eng peshqa-dam ziyolilarimiz ham payqay olmadilar. Shularni ko'zda tutib, A.Z.Validiy yozadi: «Kosmopolitlarimizcha, o'lkaning kashf eti-lishi madaniyat uchun buyuk g'alabadir. Ularga ko'ra, ruslarning ko'plab ko'chib kelishi natijasida Turkistonda madaniy taraqqiyot inkishofi ta'min etilganmish. O'lkadagi qaysi qavmning va tilning o'rniga u kelyapti, bu ular uchun ahamiyatsiz. Insonlarning saodati millatlardan birining boshqalarini yutib yoxud atrofida ushlab, bir andozaga solishi bilan amalga oshmaydi; ayniqsa O'rta Osiyo qavmlarining o'rtadan surilib, ular o'rniga Rusiya va Xitoyning hukmron bo'lishi millionlarcha yerli aholining

asrlarcha iztirob chekishlariga olib keladiki, bu o'lkani tarixining eng qora va eng baxtsiz sahifalarini tashkil etgan bo'lur edi». Shuning uchun «Yevropa madaniyati» tushunchasi va unga munosabat ijodkorlarimizda bir xil emas.

Avloniyda ham «madaniyat vahshiylari» degan ibora bor. «Madaniyat» so'zining «vahshiylik» bilan yonma-yon qo'yilishi ushbu masalaga yondoshishda uning Gasprinskiy va Fitrat bilan bir pozidiyada turganini ko'rsatadi. Bu, albatta, jahoniy hodisa bo'lgan ilg'or rus madaniyatidan voz kechish degani emas. Uni siyosiy maqsadlarga xizmat qildirilganini anglash, xolos. Ayollar ahvoli hamisha jamiyatdagi erkinlik darajasining mezonlaridan bo'lib kelgan.

Bu masala Avloniyda qanday hal qilingan?

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti

Ilmu donish yaxshi ziynatdur xotin-qiz ahlina,

Qo'y qadam ilm uyina, tumoru marjonni unut.

Uning maktabida qizlar ham bolalar bilan yonma-yon o'tirib tahsil oladilar. «Turkiston viloyatining gazetisi» 1910 yil sonlaridan birida o'sha yili 23 mayda Avloniy maktabida bir necha ulamolar, shogirdlarning otalari va ko'plab tomoshabinlar huzurida bo'lib o'tgan imtihon haqida to'xtalib, bir yosh shogird - qizning o'z aqli va tarbiyasi bilan hammani hayratga solganini xabar qilgan edi. Ma'rifatning ahamiyati millat, jamiyat tarbiyasida bemioldir. Uni amalga oshirish asosan ziyolilar, birinchi navbatda, olimu muallimlar, shoiru san'atkorlar zimmasidadir. Agar millat haq-huquqini yo'qotgan, asriy ilmu ma'rifatidan uzoqlashtirilgan, o'zligini unutayotgan bir holga tushib, jamiyat ma'naviyatidan mahrum darajaga yetgan bo'lsa, ziyoli zimmasidagi ish o'n, balki yuz karra og'irroqdir. Adabiyotning tasvir ob'ekti - hayot, uning dolzarb masalalari. Unda hayotning barcha qirralari - shiddatkor to'lqinlaridan mayin mavjlarigacha, nurli ohanglaridan g'amgin nidolarigacha, tantanavor damlaridan fojiali daqiqalarigacha tasvir etilmog'i kerak. Ular inson ruhida qatradagi quyoshdek jamuljam. Adabiyot mana shu ruhning tarjimoni bo'lmog'i lozim.

Avloniy «Adabiyot...» she'riy to'plamining 3-juziga: Qalamim qorasidur ogoh dostonimdan, Hazin qayg'um eshiting u tarjumonimdan,- degan satrlarni epigraf

qilib keltirgan edi. Shoir o‘z she’rlarining mazmuniga ishora qilmoqda. Zamonki haqsizlik asosiga qurilgan, atrof zulmat va qabohatdan iborat ekan, u shodon bo‘la olmaydi. Buni u 1909 yildayoq «Adabiyot...»ning 1-juzidagi so‘zboshida ta’kidlab ko‘rsatgan, «she’rga haris» xalqiga «hasrat va nadomatlar»ini aytishga bel bog‘lagan, tasodifmaski, o‘ziga «Hijron» taxallusini tanlagan edi. Avloniy she’rlarini o‘qir ekansiz, ko‘z oldingizda XX asr boshidagi Turkiston manzaralari gavdalanadi. Shoir unga yuk-sakdan, dunyo xalqlari hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar, Yevro-padagi taraqqiyot nuqqai nazaridan razm soladi. Mana, taraqqiyot asridagi Turkistonning rangsiz, jonsiz hayotidan lavhalar:

Samovarga chiqishub, yoshu qari chuldirashur,  
 Ertadan kechg‘acha choyni ichadur sho‘ldur-sho‘ldur.  
 O‘lturub maqtashadur otini, eshaklarini,  
 Biri der - yo‘rg‘a, biri der:-seniki-duldur-duldur.  
 Uyda och o‘lturadur xotini, er - to‘kma yeyar,  
 Kelturub bachcha, bazmlarga ketar puldur-puldur.  
 O‘ynabon qarta-qimor, pullarini boy beribon,  
 Tom teshib, bo‘xcha o‘g‘irlab, odam o‘ldur-o‘ldur.

Bu lavhalardan asta-sekin Turkistonning yaxlit manzarasi hosil bo‘ladi. Dilni dimiqtiruvchi bu so‘lg‘in rang qanchalik jirkanch bo‘lsa, shuncha ayanchli hamdir. Bu tuyg‘ular bora-bora shoirda juda tabiiy ehtiroslar po‘rtanasiga aylanadi: «Xonumoni harob», «boyqushlarga hamdam», farzandlari «haykal»dek jonsiz, «vayron» Turkiston! Yo‘q! «Sahni jonlik janoza birlan to‘lgon» «buyuk mazor!» Unga o‘lik kimsalar—«madfun zindalar» qo‘yilgan. Bu tirik o‘liklar - Turkistonning bu kungi noqobil avlodlaridir. Uning ahvoliga yer ham, osmon ham yig‘laydi. U — ham faqir, ham xaqir. Bir tarafdin jaholat, ikkinchi tomondan xorlik. Shu ahvolda u «badanidan doi-mo qon oldiradi» — mustamlakachilik jafosini tortadi...

Marizing bir tarafdin, bir tarafdin xorsan — millat,  
 Badandan doimo qon oldurar bemorsan — millat.

U na «tili», na «qulogʻi» boʻlmagan surati devor. Bu mudhish hol shoirni larzaga soladi. Butun vujudi bilan uning «koʻz ochib» dunyoga razm solishini, «uygʻon»ishini istaydi:

Koʻzing och, yotma, gʻaflatdan oʻson, millat, oʻson millat!

Topar san birla avloding omon, millat, omon millat! –

deb hayqiradi shoir. Muhimi shundaki, shoirdagi milliy hasrat nidolari ijtimoiy ohang bilan hamovoz jaranglaydi. U bu «buyuk mazor»ning kimlargadir «bogʻi jinon» — jannat gulshani ekanligini biladi. Ha, u hammaga ham birday «alamzor» emas. Uning «farogʻati» ham bor. Lekin uni «hukamo»gina koʻradi. Uning «gʻunchalari» ham koʻp, biroq uni «hukamo»gina teradi. Ammo bizda qani oʻsha «hukamo?» «Fuqaro»ning nasibasi esa, gulning tikani («xor»)dir. Shu tufayli u oyoq ostida — «xoki mazallat»da. Bu «manzar» shoirga «mahshar» azobini beradi. Shoir unga har nazar tashlaganda, «bagʻri kabob» boʻladi. Ammo u — Ona! Shoir unga farzandki, uning dardidan iztirobga tushadi. Oʻz navbatida ona ham oʻz farzandining tarbiyasi va taqdiri uchun burchli:

Ey modarim, choʻjuqlaring iflos, beziyo,

Ostingdan usting oʻldi biza tar(i)qa fuqaro.

Sandin umid shulmidi, jondan aziz ono?!

Avloniy 1912 yilda bosilib chiqqan sheʼrlaridan birini «Dunyo fojiasindan» deb nomlagan edi. Shoir unda insonlar dunyosida insoncha hayot yoʻqligini qalamga oldi. Behuda toʻkilayotgan qonlar, insonning hayvoncha ham qadri qolmagani, «bechora-yu ojizlar», aftoda yetimlar» boshidagi «jabru sitamlar», «haq pastda qolub, nohaq pul birla quvvat top»ishi, uningcha, bu fojining bir koʻrinishidir. Bas, u «gʻam uyi»dir. Gʻamxona esa, «barbod boʻl»mogʻi lozim. Avloniy hokimlar va tobelar — «kuchlilar» va «kuchsizlar» oʻrtasidagi munosabatlarga eʼtibor berdi. Bu munosabatlarda inson nomiga munosib belgi topa olmadi. Aksincha, ular yirtqich hayvonlarning zoʻri ojizini mahv etish asosiga qurilgan kun kechirish tarzini esga tushiradi. Lekin yirtqich hayvon bilan «inson-darranda» orasida farq bor. Bu farq shundaki, «inson—darranda» soʻzlaydigan, fikrlaydigan yirtqichdir. U insof va vijdondan lof uradi. Doʻstlik, birodarlik haqida soatlab vaʼz oʻqiy oladi.

Egnidan taqvo libosi tushmaydi. Bu birgina Turkistonga xos hol emas. U hamma yerda mavjud. Shoir bunday holni raqib millat ichida emas, millatlar orasida ham ko‘radi. Masalan, mamlakatlar o‘rtasida bo‘lib turadigan urushlar shuning bir ko‘rinishi, deb hisoblaydi. Biroq «bu kunda madaniy millatlar urushlarini tijorat va sanoatga aylاندurdilar,—deb yozgan edi adib,- va bu soyada bir-birlariga g‘alaba va raqobat qila boshladilar. SehrGARlik va jodugarlik ila emas, tijorat va sanoatgirlik ila cholishqon Ovrupo Afrika va Osiyoni o‘ziga asir va musaxhar qilmoqdadir». Zamonning rangi o‘zgardi, xolos. Mohiyati o‘sha-o‘sha. «Kuchlik» millatlar — «jahon Jayhunlari» «kuchsiz»larini o‘z komiga tortmoqda. Shoir shularga «tumi tay-yor» bo‘lishdan ogoh qilmoqchi. Shuning uchun ham u millatning hayot-mamot masalasi hal bo‘layotganini, uning «yavmul-hisob» qarshisida turganini ta’kidlaydi. Xo‘sh, shoir bularning oldini olish, insonlarning insonlarcha hayot kechirishini ta‘min qilish, jumladan, Turkistonni ozod va baxtiyor etish uchun nimani taklif qiladi? Avvalo shuni aytish kerakki, shoir, garchi odamlar munosa-batida yovvoyi tabiatning shafqatsiz qonunlariga xos xususiyatlar ko‘rsa-da, ularning bir kunmasbir kun mehru muhabbatga aylanishiga, Turkistonning esa ozod va obod bo‘lishiga astoydil ishonadi.

Garchi man ma’yusu purg‘am millatim ahvolidan,  
 Qat’ ummid aylamam ta’mai istiqbolidan, -  
 deb boshlanar edi shoirning «Istiqboddan orzularim» she’ri.  
 Kelur ulfat, adovat o‘rtadin qalqur, ketar bir kun,  
 Qaro kunlar ketub, o‘rnig‘a ravshanlik yetar bir kun,  
 Adolat bog‘ida gulhoyi tarbiyat bitar bir kun,  
 Ochib g‘uncha dahonin, shodlig‘ izhor etar bir kun,  
 O‘lur olam guliston, qayg‘u-kulfatlar yitar bir kun,  
 Gulobi hurriyat atri musaffosin otar bir kun,  
 Dilim, g‘am chekma ko‘b, bir kun kelur, bedor o‘lur olam,  
 Chiqib bulbullari chahchah qilur, gulzor o‘lur olam... —

deb yozadi yana bir she’rida. So‘nggi bayt istiqbol orzusi bilan to‘liq mazkur musammanning har bandini yakunlagandek takrorlanib keladi. Bu she’r 1912 yilda

bosilib chiqqan. Shoir insonlar o'rtasida mehru muhabbat, do'stlik qaror topishiga, adolat va haqiqat tantana qilishiga, yorug' kunlar kelishiga ishonch bildirmoqda. Hatto ozodlik — hurriyat zamoni haqida orzu qilmoqda. Lekin tabiiyki, bular o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Shoir buni yaxshi tushunadi. Xuddi shu she'r — musammanning o'zida ham bunga ishora bor. Shoir gagshi ilm-ma'rifatdan boshlaydi. Undan ko'p narsa umid qiladi. Hatto uni salkam nurli hayotga olib boruvchi birdan-bir yo'l deb hisoblaydi. She'rda ilgari surilgan bu fikr ma'lum mantiqqa tayanadi, albatta. Jumladan, usiz keng xalqning o'z huquqini anglay olishi mumkin emasligi tabiiy edi. Shoir o'lkadagi nodonlikni qoralar ekan, shu masalaga alohida e'tibor beradi: «Huquq(n)ing no'ldig'in idrok qilmas, jismimiz bejon», — degan satrni uchratamiz she'rda. Buni taxminan istiqbol uchun kurashdagi ikkinchi bosqich deb hisoblash mumkin. Samarqandlik Siddiqiy Ajziy ham o'zining «Mir'oti ibrat» dostonida bu masalaga keng o'rin ajratgan edi. Lekin bular bilan ham hech ish bitmaydi. «Bir g'oya atrofida uyush-moq, bir maslakni tutmoq», ma'lum bir «idyol»ni ushlab o'sha uchun «kurashmoq» kerak. Bu ham haligi musammanda bor.

Abas bir g'oyasiz dunyoi dundan yaxshilik kutmak,  
Kerak bir maslaku bir g'oyau idyolni tutmak,  
Biza bir yo'lni ushlab, nuri maqsuda borib yetmak...

Buning uchun esa xalq o'z haq-huquqini anglagan bo'lishi, nima uchun kurashayotganini aniq bilishi va u yo'lning to'g'riligiga ishonch hosil qilishi lozim. Avloniy 1914 yilda bosilgan «Muxotabim qalam» («Qalamga xitobim») she'rda qalamga xitoban «ojizlarga imdod qil»ishini «millat xonadonini toza ta'mir ila bunyod et»ishini o'tinadi. Diqqat qilaylik, «toza ta'mir» bilan, ya'ni qaytadan qurib, yangitdan bunyod etish ustida gap ketyapti. Darhaqiqat, shoir she'riyatining bosh yo'nalishini millatda milliy ongni shakllantirish tashkil etdi. Buning uchun u Turkiston turmushini boshqa xalqlar hayoti bilan qiyoslab ko'rsatdi.

«Bobolarimizning «bo'lsa bo'lar, bo'lmasa yuvlab ketar» zamonlari o'tub, o'rniga «bilg'on bitar, bilmag'on yitar» zamoni keldi. Amerikaliklar bir dona bug'doy ekub, yigirma qadoq bug'doy olurlar. Yovrupoliklar o'zimizdan olgan besh tiyinlik

paxtamizni keturub, o'zimizga 25 tiyinga soturlar!» Birinchi Jahon urushi va uning asoratlari mavzui ham Avloniy ijodidan keng o'rin olgan. Shoir bu mudhish falokatning yuzaga kelish sabablarini tahlil qiladi, uning mazmun- mohiyatini belgilashga urinadi. Uningcha, bosh sabab «raqobat», bo'lingan dunyoni bo'lib olishga urinish, «olama hokimlig'» dag'dag'asi edi. Nihoyat, mardikorlik voqealari yuz berdi. Chor hukumati yon berishga majbur bo'ldi. Mardikorlikka olinadiganlar soni qisqartirildi. Ularni jo'natish keyinga surildi. Turkistonni yaxshi bilgan A.N.Kuropatkin general gubernator qilib tayinlandi. 18 sentyabr kuni mardikorlar tushgan birinchi eshelonni tantanali jo'natish marosimi bo'ldi. G'oyat tadbirkorlik bilan ish ko'rildi. Mardikorlarga osh tortildi, pul va shirinliklar ulashildi. Kuropatkinning shaxsan o'zi ularga oq yo'l tilab, kuzatib qo'ydi. 18 oktyabrda esa, Nikolay II mazkur eshelonning «vakil»larini o'z qarorgohida qabul qildi... Shunaqa xilma-xil usul va tadbirlar oqibatida yil oxiriga kelib o'lkadagi qo'zg'alishlar paysal topdi. So'ng esa qo'zg'olon qatnashchilarini shafqatsiz jazolash boshlandi. Yigitlarni frontga jo'natish mavzuida adabiyotimizda o'nga yaqin she'riy to'plam maydonga kelgan. Avloniyning «Mardikorlar ashulasi» kitobi ham shular sirasida. Xalq qo'shiqlari yo'lida yozilgan bu she'rlar g'oyat dardli, g'amgin. Ularda osoyishta hayotni chayqatib, insonlar taqdirini alg'ovdalgov qilib yuborgan urushga, uning haybarakallachilariga pinhoni g'azab yashiringan. Shoir she'rlari bilan o'zbek mardikorlik poeziyasi degan hodisaning maydonga kelishida o'z hissasini qo'sha oldi.

Afsuski, Abdulla Avloniyning 1916 yil, ayniqsa 1917 yil Fevral-Oktyabr oralig'idagi poetik ijodi haqida juda kam ma'lumotga egamiz. Hozircha, 2 she'ri ma'lum. Biri «Qutuldik», ikkinchisi «Yotma» deb nomlangan. Nomidanoq aytilmoqchi bo'lgan gap anglashilib turibdi. Shoir Fevral voqealari munosabati bilan vatandoshlarini mustabid chor hukumatidan, «badkirdor Romanov», «dumdor Rasputin»lar zulmidan qutulgani bilan mu- borakbod etadi. Chindan ham samoderjaviyening ag'darilishi ul-kan hodisa edi. Oldinda vazifalarning eng muhimi va asosiysi - milliy, mustaqil Turkistonni barpo etish, hokimiyatni o'z egalariga olib berish turardi. Shoir buni tushunadi va «millati najib»ni «g'ayrat

qil»ishga, «hur yo‘l»ni mahkam ushlab, barcha zulmlardan xalos bo‘lishta chaqiradi. Inqilobiy voqealar Avloniyga ta’sir etmay qolmadi. U endi istiqbolni faqatgina ma’rifat, ilm-fan orqali qo‘lga kiritish mumkin emasligini angladi, erk va hurriyatga yetmoqni yo‘li bitta - birlashish, milliy demokratik kuchlarni birlashtirish degan xulosaga keldi. Shu umidda rus inqilobiy harakatchiligi, sovetlar bilan ham bog‘landi. Afsuski, sotsialistik «idyol» deganlari sarob ekanligini, sovetlar yo‘li oq imperiyaning mohiyati o‘zgarmagan «qizil» shakli ekanligini daf’atan anglay olmadi. She’riyatda esa yangi g‘oya va timsollar uchun yangi shakl va ifodalar izladi. Eskilariga yangi mazmun singdirdi. Ularning muhimlari quyidagilar edi:

#### 1. Vaznning yangilanishi.

Ma’lumki, ming yillik klassik she’riyatimiz aruz vaznida yozilgan. Asr boshidagi she’riyatda ham u yagona va asosiy vazn edi. Lekin Navoiygacha bo‘lgan va undan keyin yaratilgan xalq og‘zaki ijodi - barmoq vaznida. Mumtoz adabiyotimizda barmoqda yozilgan she’r deyarli uchramaydi. Lekin aruz murakkab, bo‘ronli davrning goh shiddatkor, goh bo‘g‘iq nafasini keng ommaga yetkazishda uncha qulay emas edi. Shuning uchun ham Avloniy muhim ijtimoiy masalalardan bahs ochuvchi ko‘pgina she’rlarini barmoqda yozdi. Barmoqni xalq og‘zaki ijodidan yozma adabiyotga olib o‘tdi. Avloniyning barmoqdagi ilk she’rlari xalq qo‘shiqlariga moslab yozildi. Masalan, «To‘y haqida» she’ri «Reza» kuyida:

Otma mani toshlar bilan, yor-yor, yor-o‘v,

Uchub ketay qushlar bilan, yor-yor, yor-o‘v!

—deb boshlanadigan xalq ashulasi yo‘lida yozilgan va hokazo. Bu qo‘shiqlar shoir tashkil qilgan «Turon» («Turkiston») truppasi ishtirokchilari ijrosida goh spektakllarga singdirib yuborilar, goh anraktlarda ijro etilar, goh milliy konsert dasturlariga qistirilar edi.

#### 2. Poetik janrlarning yangilanishi.

Adabiyot shu yillarda xalq hayoti bilan yanada yaqinlashdi, yanada xalqchil, ommabop bo‘ldi. Adiblar yangi janrlar, shakllarda o‘z kuchlarini sinashga shaylandilar. Ko‘hna an’anaviy shakllar yangi xususiyatlar orttirdi. Avloniyning

«Oila munozarasi», «Shoir ila to‘ti» kabi bir qator she‘rlari munozara harakterida yozilgan. Masalan, «Shoir ila to‘ti» she‘rini olaylik. She‘r shoir bilan to‘ti o‘rtasidagi dialogdan iborat. Asarning mazmuni quyidagicha: shoir jahongashta to‘tidan dunyoda bo‘layottan o‘zgarishlar, boshqa mamlakatlar, elatlarning ahvoli haqida so‘raydi. To‘ti Turkiston xalqi hali ham g‘aflatda ekanligini, ilm, madaniyat egallash uchun, hayotda o‘zining haqiqiy o‘rnini topish uchun qo‘zg‘almaganini aytib, «shoiri shirin suxan»ga «nadomat» aytadi.

### 3. Poetik obrazlarning yangilanishi.

Klassik adabiyotimizda ming yillardan beri ishlanib kelgan gul, bulbul, yor, ag‘yor, may, charx (dunyo) kabi obrazlar bu davr adabiyotida, jumladan, Avloniy ijodida boshqacha ohang, boshqacha mazmun kasb etdi. Masalan, u gulni shunday «ta’rif»laydi:

Xor alindan bag‘ri qon o‘lmish, bo‘yanmish qona gul,  
 G‘uncha bag‘rin chok etub, afg‘on qilur afsona gul...  
 Yuzdagi xoli emas, zolim tikonning yorasi,  
 Kecha-kunduz zaxmi g‘am birlan butun o‘rtona gul...  
 Subhidamda yuzlarindan mavj uran shabnam emas,  
 Xor zulmindan to‘kar ko‘z yoshini durdona gul...  
 Gar sabo tebratsa gulni, xush isi nevchun chiqar,  
 Bag‘riga botgan tikanlardan kelur afg‘ona gul.  
 Naylasun bechora gul botmish vujudiga tikan,  
 Zaxmiga marham uchun yafrog‘iga chulg‘ona gul.  
 Dildagi qayg‘ularin ko‘rganmusiz, chun za’faron,  
 Chok etub g‘urbat yaqosin ko‘rsatur insona gul...  
 («Ta’rifi gul»)

Bu yerdagi gul an’anaviy ma’shuqa emas. Subhidamda yuziga qo‘ngan shabnam (ko‘z yoshi) qat-qat alvon yaproqlar (bag‘ri qon bo‘lishi) oshiq iztiroblarini ifoda etmaydi. Bu yerda gap muhabbat haqida emas: gul g‘urbat va mashaqqatdan

za'faron bo'lgan yuragini chok etib insonga ko'rsatadi... Beixtiyor xor (tikan) mustamlakachi istibdodini, bag'ri qon gul esa jafokash Turkistonni eslatadi.

«Hijroni bulbul», «Fig'oni bulbul» she'rlaridagi bulbul ham aksariyat hollarda gul (ma'shuqa) ishqida yonib o'rtanayotgan oshiq emas. U ko'p o'rinlarda mazlum Turkistonga karata: «Uyg'on!» - deb, bong urayotgan lirik qahramon - shoir obrazini ifodalaydi.

Qo'nub gul shoxiga bulbul, der: «Ey insonlar, insonlar!

Qilursiz tobakay g'ofil yotib afg'onlar, insonlar».

(«Sadoyi bulbul»)

Jahon bog'ini gulzorinda faryod etdi bir bulbul,

O'turdi nag'mazorinda gulin yod etdi bir bulbul.

Ko'rub gul yafrog'ini hajridan dod etdi bir bulbul,

Visoli yor uchun yuz navha inshod etdi bir bulbul...

(«Fig'oni bulbul»)

«Hijroni bulbul» she'ri bu o'rinda juda diqqatga sazovor. She'rning mazmuni quyidagicha: bulbul - shoir guli - millati hajrida kechayu kunduz figon chekadi. Butun umrini unga bag'ishlaydi. Lekin bulbul gulzorda bog'bon qo'liga tushib, qafasga tashlanadi. U endi qafasda «Gul!» deb, faryod qiladi. Zolim «qafas» unga ozor beradi. Taajjub! Uning «faryod»ini hech kim tinglamaydi, hech kim unga «rahm» qilmaydi. «Gul» hajrida uning yo'ddoshi faqatgina «g'am» bo'lib qoladi... Keyingi parchada gul obrazi ham bor. Bulbul gulini yod etyapti. U uchun iztirob chekyapti. Qafas — zamon. Millatning «kar»ligi, e'tibor qilmasligi milliyat tuyg'usining so'nganligidandir.

Kecha-kunduz qafasda, oh gul, deb aylayur faryod,

Omon bermas ango zolim qafas ozor o'lur bulbul.

Taajjub rahm qilmas yetmayur faryodina hech kim,

Bu Hijronlig'da doim g'am bilan g'amxor o'lur bulbul.

Shu tariqa, Avloniy gul va bulbul obrazlariga faqat yangi ma'no yuklabgina qolmay bu obrazlarni davom ettiradi. Darvoqe, Avloniy she'rlarida yor obrazi — ilm, ma'rifat, taraqqiyot, xalq tushunchalarini, ag'yor — nodonlik, jaholat, zulm,

istibdod ahli ma'nolarini ifodalaydi va hokazo. Bu obrazlarning aksa-riyati o'zlarining ilgarigi ma'nolaridan butunlay uzoqlashgan va zamon talabiga mos yangi mazmun, o'zga ohang kasb etganlar.

#### 4. She'rlarning sarlavhalanishi.

Avloniy har bir she'rga sarlavha qo'yadi. Bu undagi kayfiyat va mazmunni ifodalashidan tashqari shoir lirikasining umumiy yo'nalishini belgilaydi. Mana, ularning ayrimlariga e'tibor qilaylik: «Ey, jaholat nori birla yondi jismi po-kimiz», «Haqiqat o'lsun bu xayol», «Oqma, ko'z yoshim», «Kerakmu yo kerakmasmu?», «Oh, bag'ri qonim», «Falak bizni nelar qildi?», «Guftori g'am», «Jigarso'z», «Dunyo fojiasindan», «Hasratlik hollarimiz», «Girdobi g'amdin bir po'rtana», «G'alat», «Istiqbolimiz uchun bir jigarso'z», «Istiqboldan orzularim» va hokazo. Avloniy umuman so'zga katta e'tibor beradi. Uning mo'jizaviy kuchini yaxshi biladi. Darhaqiqat, zamona hammani uyg'otadigan, barchani larzaga solib, olg'a undaydigan so'zlarni ko'proq talab etar edi.

#### 4. An'anaviy «hamd» va «na't»lar mazmunining o'zgarishi.

«Adabiyot yoxud milliy she'rlar» to'plami juzlari ham udum bo'yicha Olloh madhi («hamd») va payg'ambarimiz sifatlari vasfi («na't») bilan boshlanadi. Biroq ularning barchasi oxir- oqibat millat g'amiga kelib bog'lanadi. Shoir Ollohg'a iltijo qilar ekan, millatning tanazzulidan «nifoq, bug'z, xurofot»dan dod soladi, Rasuli akram ruhidan madad tilaydi. Abdulla Avloniy tatar, ozarboyjon qardoshlari bilan yaqindan aloqa bog'ladi. Ulardan ko'p narsa o'rgandi, o'rgatdi. Bu o'zaro hamkorlik uning ijodi va faoliyatida yorqin izlar qoldirdi. Shoir mashhur ozarboyjon kuychisi Muhammad Hodidan ilhom olib, unga naziralar bitdi. Goho bu ta'sir, tamoman ergashish, g'oya va obrazgina emas, ifoda vositalari izmida ham qolish da-rajasigacha yetib boradi. Avloniy she'rlari orasida yengil mutoyiba bilan yozilganlari ham uchraydi. Muqimiy davrida bu xil she'rlar yozish juda keng tus olgan edi. Avloniy mazkur an'anani davom ettiradi. («To'y haqida latifago'yga», «Ko'knori va qimorboz», «Qimorbozni(ng) qimorbozga nasihati».) Avloniyning 10-yillarda yozgan «Pinak» (1915), «Advokatlik osonmi?!» (1916) dramatik asarlarida she'riyatdagi g'oya va fikrlar davom etdi. Jaholat va zulmatga

botgan Turkistonning chirkin manzaralari kulgili lavhalarda sahnada namoyish qilindi. Chunonchi, «Pinak»da g'ayrat va shijoatlari bilan dunyoni larzaga solgan, kunchikdrdan kunbotishgacha yurt so'ragan buyuk bobolarning zalolatga botgan avlodlari ko'knori va qimorbozlar hayoti orqali fosh etiladi. «Advokatlik osonmi?!» ning mazmuni quyidagicha: Davronbek Rusiyada yetgi yil o'qiydi va Turkistonga advokat bo'lib kaytadi. Lekin shu o'tgan vaqt ichida Turkiston turmushida biror o'zgarish bo'lmapti. Xalq hali ham ilmu ma'rifatdan yiroq. Fuqarolik qoidalari, davlat qonunlari, huquqiy tartiblardan bexabar. Shu sababli ular baxtsizdirlar. Davronbek shunday o'ylaydi va qo'lidan kelgancha ularga yordam bermoqchi bo'ladi. Masalan, Xudoyberdi chol bilimsizligi, oldi-sotdining tar-tib-qoidalaridan bexabarligi oqibatida «chuv tushadi». Ma'lum muddatda qaytaraman, deb tilxat berib olgan pulni «beparvolik qilib» qaytarmaydi. Bundan foydalangan boy tezlik bilan uning yerini o'ziga xatlab olish chorasini ko'radi. Baxtsiz Mehrinisa xola o'n besh yildan beri qimorboz eri qo'lida «o'tga yoqilib, toshga chaqiladi». Xullas, hammayoq g'urbat. Adibning «Biz va Siz» asari, nomlanishidan ko'ringanidek, turmushga ikki xil yondoshishni ifoda etadi. Unda jaholat mavzui bilan yonma-yon muhabbat ham beriladi. Asar markazida Yevropada o'n yil o'qib «yangi hayot», «yangi turmush» haqidagi jo'shqin orzular bilan qaytgan Kamolning taqdiri turadi. U «churub, biljirab ketgon» «eski turmush»ni «tuzatmoq»chi. Uning butun fikri-zikri shu bilan band. U o'qimishli Maryamni sevadi. Uning sevgisi ham, aytish mumkinki, g'oyaviy-ma'naviy yaqinlik asosiga kurilgan. Biroq «eski turmush» kuchlari ustun keladi. Kamol va Maryam halok bo'ladilar. Avloniy juda muhim bir masalani, insonning baxti va turmushini asar markaziga qo'yadi va jildiy ijtimoiy ziddiyatni keskin vaziyatlarda ochib berishga urinadi.

**Birinchi bob yuzasidan xulosalar shundan iboratki,** Abdulla Avloniy taniqli jurnalist, jamoat arbobi, shoir dramaturg, yozuvchi, tarjimon va ulkan ma'rifatparvar muallimdir. U juda ogir, suronli davrda ijod qilib, qisqa umri davomida ma'rifat, maorif va madaniyat masalalari bilan keng shug'ullanib, bir necha jildga jo buladigan asarlar yozdi. U kelajak avlodning ma'naviy olamini

kengaytirish borasida tinmay g'amxo'rlik qilib, «Adabiyot yoxud milliy she'rlar», «Turkiy guliston yoxud axloq», «Ustodi avval», «Muallimi soniy» kabi darslik va qo'llanmalar hamda turkistonda sahna san'atini keng targ'ib qilish ishida ham jonbozlik ko'rsatib, «Advokatlik osonmiq», «Pinak», «Biz va siz», «Ikki muhabbat», «Portugaliya inqilobi» kabi dramatik pesalar yaratdi.

## **II BOB**

### **ILK MAKTAB DARSLIKLARI YARATILISH TARIXI, PEDAGOGIC ASOSLARI**

**II.1 O'zbek alifbesining yaratilish tarixi va muammolari.** O'z yozuviga ega jahon xalqlarining barchasida bola ko'z ochib ko'radigan, aniqro'i, yozish va o'qishni ilk bor o'rgata turib kishilik tomonidan yaratilgan ma'naviyat mulkiga ochqich vazifasini bajaradigan mo''tabar bir kitob bor. U hech qanaqa ilmiy yoki badiiy nomga ega emas, balki har bir xalq amal qilayotgan milliy alifbolarning boshlang'ich harflari nomlari qo'shilmasidan hosil bo'lgan so'zdan nom olgan. Shu bois lotin alifbosida ish ko'radigan yunonlarda "alfa" va "beta" yoki "vita" harflari nomi bilan "alfavit", nemislarda, inglizlarda va fransuzlarda "alfapit" deyilsa, qadimda arab alifbosida ish ko'rganligi bois o'zbeklarda, tojiklarda "alif" va "be" harflari nomi bilan "alifbo", moldovanlarda esa ular alifbosidagi to'rt harf - "al-bu-ni -tse" yoki "a -be -che -dar" nomlari bilan "albunitse" yoki "abechedar", nihoyat ieroglif yozuvi bilan ish ko'riladigan xitoylarda "xay" va "pyan"

ierogliflaridan tuzilgan "xaypyan" tarzidagi nomlar bilan yuritiladi. Dunyoda hech bir kitob murg'akkina bolakay uchun ma'naviyat ko'zini ochishda alifbega teng kelolmaydi. Unda alifbe darslikmi yoki kitob? U bolaga savod sabo'ini berishda darslik, lekin uning ma'naviy dunyosiga vatan, ona, er, qo'yingki, borliq olam tushunchalarini ilk bora olib kirishi bilan mo'jizaviy kitob vazifasini o'taydi. Shu sababli bunday kitobni yaratish behad mas'uliyatlidir.

Turkiy xalqlarning sug'diy, xorazmiy, do'lbarjin (runiy), monaviy, uyg'ur kabi o'z qadimiy yozuvlari bo'lgani tarihdan ma'lum. Lekin, VII -VIII asrlarda arablar Movarounnahrni bosib olgach, bor kuch va imkoniyatlari bilan bu yozuvlarni ham, shu yozuvlardagi bitiklarni ham yo'qotish siyosatini olib bordi, o'rniga zo'ravonlik bilan o'z yozuvini joriy etdi. Xalqimiz bu yozuvga o'n to'rt asr davomida amal qildi.

Arablar boshda bu yozuvni erli aholiga o'zaki shaklda o'rgatishga kirishgandilar. Bu bilan muqaddas Qur'oni Karimning o'zaki nozil qilinganiga asoslangandilar. Shu maqsadda arab alifbosidagi barcha harflarni maxsus moslashtirilgan taxtachaga yozib, har bir harf nomini o'z tartibiga ko'ra qiroat bilan o'qib yodlash va shaklini esda qoldirish asosida o'rgata boshladilar, ehtimol arab alifbosi yozilgan shy taxtachalarni alifbe yaratish yo'lidagi dastlabki izlanishlar natijasi o'laroq qarash mag'bulroqdir. har qalay dastlabki maktablarning boshida faqat o'qish asosida ish ko'rishgani, yozishni o'rgatish maqsadini ko'zlamagani ham pgu fikrimizni dalillashi mumkin.

Keyinchalik yozishdan ham saboq beruvchi maxsus maktablar paydo bo'la boshlagach, boshda shu maktablarda ham taxtakachlardan foydalanilgan bo'linsada, ulardan asosiy maqsadga erishi qiyinligini anglashga olib keldi. Natijada yozuvni o'rgatishga mo'ljallangan maxsus tavsiya - bitiklar yoki qo'llanmalar yaratish masalasi kun tartibiga qalqib chiqa boshladi. Manbalar arab yozuvini o'rgatishga bag'ishlangan ana shunday ilk bitik 908 - 909 yillarda Isxoq binni Ibrohim Tamimiy tomonidan yozilgan "Tuhfai vomiq" risolasi ekanligini qayd etadi. Biroq uning asari qismati hanuzgacha noma'lum. Abu Ali ibn Muqlo (x asr)ning ham shunday asari borligi e'tirof qilingan. Lekin bizgacha Ibn Bavvob (XI

asr)ning 22 baytdan iborat "qasidai roiya" manzumasi etib kelgan. U yozish qoidalarini sheʼr bilan ifodalagan ilk alifbe (abiytsedariy) namunasidir. Shundan soʻng arab alifbosidagi harflarni hajman nuqtalar bilan belgilash odatga kirdi va shu xildagi alifbe manzumalar yaratila boshlandi. Jumladan, hoji Mirali Tabriziyning sheʼriy "Mufradot" va nasriy "Medodul xutut" (Xatlar (yozuvlar) rangi), Sulton Ali Mashxadiyning "Sirot ul -xat" (Yozuv (xat) sirlari), Darvesh Muhammad binni Doʻstmuhammad Buxoriyning "Favoyid ul -xutut" (xatning foydalari, 1587) asarlari dunyoga keldi. (qarang: A. Murodov oʻrta Osiyo xattotlik sanʼati tarixidan Toshkent: "Fan", 1971, 28 - 6). Shuningdek, yozuvni oʻrgatishda "Badoiy ul -insho" (Badiiy insholar), "Munshaot" (Maktublar) va "Dastur ul -kuzzot" (qozilar uchun dastur) kabi qoʻllanmanoma asarlardan ham foydalanilgan. Biroq bu asarlarning barchasi arab yo fors - tojik tilida boʻlganidan turkiyzabon hamushrning bolalari tushunuviga birmuncha qiyinchilik tugʻdirgan. Shu qiyinchilikni bartaraf etishning davr taqazosiga aylana borishini anglagan Shermuhammad Munis, Boborahim Mashrab, Mirzosalim Mirzoraxim oʻgʻli Salimiy va Anbar otin singari ijodkorlar XVII -XIX asrlar davomida alifbo - gʻazal, alifbo -muhammas, "Savodi taʼlim" va "Yakka baytlar" singari alifbo - manzumalarini oʻzbek tilida yaratdilar. Nihoyat 1909 yilda Pir taxallusli Said Salohiddinxoʻja ibn Oloviddinxoʻja yaratgan oʻzbekcha "Mufradot" Toshkentda Gʻulomxasan Orifjonov matbaasida bosilib chiedi. Shuni taʼkidlash joizki, bu kitob fors -tojik tilidagi "Mufradot"ning oʻzbekchaga tarjimasidir. Unga koʻra arab alifbosini oʻrganish 3 bosqichda amalga oshirilgan:

Birinchi bosqich mufradot davri deyilib, 1-2 yilgacha davom etgan. Mufradot soʻzining maʼnosidan ayonlashayotirki bu bosqichda arab alifbosidagi har bir harfni alohida - alohida, toq yoki yakka xolda yozish oʻrgatilgan. Soʻngra harfni harfga qoʻshib yozish davri boshlangan. Murakkabot deyilguvchi bu bosqichda harf oʻzidan oldingi yoki keyingi harfga qanday boʻlanishi - murakkab qilinishi mashq qilingan. Tabiiyki, bunda boʻgʻin koʻchirish mashq asosini tashkil etilgan. Nihoyat uchinchi bosqichda - soʻzni toʻlasincha yozishga koʻchilganki, bu muqattaot davri deyilgan. Bunda, asosan, qitʼalar (muqataot - qitʼaning koʻpligi

ma`nosida), ikkiliklar ruboiylarni ko`chirib yozish etakchi tamoyilga aylangan. SHundan keyin tolibul ilmlarga mustaqil holatda qarindoshlariga duoyi salomlar (xatlar) va har xil ish qog`ozlarini yozish o`rgatilgan.

Shuni eslatish joizki, Boboraxim Mashrab va Mirzosalim Mirzorahim o`g`li Salimiyarning alifbe - g`azali va alifbe - muhammasi hurufi dalolat san`ati asosida yozilgan bo`lsa, Anbar otinning "Yakka baytlar" alifbe - manzumasi xurufi xijo san`ati negizida bitilgan.

Mashrabning alifbe - g`azali 16 bayt (32 satr)dan iborat; har satri arab alifbosidagi bir harf bilan boshlangan. Shoir shu harfdar dalilligida o`zining olloh jamoliga oshiqligi tuyg`ularini tasavvufona ruhda izhor etishga intiladi;

Te -tilovat qilg`ay erdim oyati ruxsoringni,

Se - savobi xatmi qur`on intiho qildim bu kun.

Mirzosalim Mirzorahim o`g`li Salimiy ham Mashrab an`analariga sodiq, biroq u o`zining 6 band (30 satr) alifbe - muhammasida Mashrabdan farqli o`laroq lirik qahramonning ijtimoiy noroziligi ifodasiga e`tiborini qaratib, arab alifbosidagi har bir harfning shakliy ko`rinishini shafe keltirib, o`zi yashagan jamiyatning insonni qay ko`ylarga solayotganidan shikoyatini dalillashni ko`zlaydi:

"Alif"dek qomatim sarv erdi umrim jo`nborida,

Bukildi "be" kabi tushdi qarilik rahguzorida,

Tanim "te"dek tovona erdi ayyomi bahorida,

Sanou hamd etardim "se" kabi tasbih torida,

Ki emdi "jim" kabi jismim yiqilmoqdir mazorida.

Anbar otin esa hurufiy ijro usulida bitgan "Yakka baytlar" alifbe - manzumasida insoniylikni sharaflash yo`lini tutgan. Unda arab alifbosidagi 27 harfning har biriga alohida - alohida she`r bitilgan. Biroq ular bag`ishlov yoki tavsif harakterida emas, balki o`sha harfning faol ishtiroki asosida ifodalagan tovushni idrok etishni qulaylashtirish maqsadida bitilgan to`rtlik, sakkizlik va o`nlik shaklidagi poetik tizmalardir. SHoira ularda shunchaki tovushni xis etishni ko`zlash bilan cheklanmaydi, bil`aks ularda murg`ak qalblarga ijtimoiy - axloqiy saboq berishni

ham ko'zlaydi, Chunonchi, "alif" ta'rifini odamiylik moxiyatini ochishga qaratarkan, Alisher Navoiyning "Odamiy ersang demagil odami, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami" hikmatidan ijodiy oziqlana turib, uni odamiylikning bosh sharti - vatanga uyg'unlikdan iborat fuqarolik tuyg'usini uyg'otuvchi vosita darajasida talqin qiladi:

Odam ersang ma'ni bil dona - dona,  
 Vatan erur senga ikkinchi ona,  
 So'zlamasdan oldin so'zingni sina,  
 Har bir so'zdir umring ichinda sina (v).

Satrlar oxiridagi "na" hijolari "alif" bilan tugagan, ayni vaqtda u o'sha satrlarning ham, demakki, satrlarda ifodalangan poetik ma'no va satrdagi ritmik butunlikning ham intihosi, yakuni. Shoirida "alif" belgisi ifodalagan tovushga shu xilda jilo beradi, unga shu qadar xilma -xil poetik yuk yuklaydi.

O'zbek maktablarida yozuv va uning qoidalarini o'rgatishda Shermuhammad Munisning 1804 yilda yozgan "Savodi ta'lim" manzumi ahamiyatga ega bo'ldi. 352 misradan iborat bu alifbe manzumada dastlab xusni xatdan saboq bergan ustoz, mashhur hattot Ibn Hojibga minnatdorchilik bildirilgach, so'ng uning yozilish abablarini bayon etib, qalam va xatning ahamiyati, xat yozish asboblari va ularni yozishga shay tutish talablariga to'xtaladi, xatning kishilik madaniyati taraqqiyotidagi ahamiyatini uqtiradi. Nihoyat arab alifbosidagi 28 harfning har biriga poetic tavsif berishga o'tadi, har bir harfning necha nuqtalik hajmga egaligi va tabiatda mavjud nimagadir o'xshashligini ta'kidlab, o'sha harfning yozma shaklining xotirada mustahkam o'rnaviga yo'l ochadi. Chunonchi:

Zo uch nuqtayu, lek sarkash,  
 Qilsa bo'lur oni qushga o'xshash.

Shoir shu xilda harf, obrazining ko'rimliligiga, predmetliligiga erishadi va keyinchalik yaratilajak alifbelarda ko'rgazmali harf metodiga asoslanilishiga yo'l ochib beradi. Shu mantiqqa asoslanilsa, yuqorida nazardan o'tkazilgan alifbe - manzumalar o'zbek alifbosini yaratish yo'lida o'ziga xos

izlanishlar bosqichi bo'lganligini, binobarin, bu dastlabki omil ekanligini e'tirof etish maroqlidir.

O'zbek milliy alifbosini yaratish yo'lidagi ikkinchi omil - ijtimoiy - siyosiy munosabatlarning xalq turmushiga ta'siri, qolaversa, milliy uyg'onish harakatining (maorifparvarlik); g'oyalarini o'zbek xayotga tatbiq qilinishidagi izlanishlar natijasidir. Shunday harakat tufayli XVIII asrda Sibir, Orenburg, Astraxan, Tyumen, Tobolsk singari rus shaharlariga ko'chib ketgan o'zbek bolalari uchun Nayat Boqi Otametov tuzgan "Alifbe"ni Rossiya Fanlar akademiyasi nashr etdi. U mavjud rus "Azbuka tajribasiga suyangan xolda bo'lsa -da, unda arab alifbosi asosidagi o'zbek yozuvini o'zbek tili qoidalariga muvofiq xolda o'rgatish tamoyiliga asoslaniagan edi. o'zbek bolalarining rus maktabida o'qiyotganini inobatga olib, u yoki bu harf ishtirokidagi ayrim ruscha so'zlarning o'zbekcha tarjimalari ham berilgandi. Taniqli tarixshunos olim X. Ziyoevning e'tiroficha, ana shu o'zbek alifbesining yaratilganligiga 200 yildan oshdi<sup>5</sup>. Bu jarayonga O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi tufayli yuzaga kelgan siyosiy - ijtimoiy vaziyat kuchli ta'sir ko'rsatdi. Natijada chor mustamlakachilari XIX asrning 70 - yillariga kelib, o'zlarining "madaniylashtiruvchilik" (F. Engelg's iborasi) larini namoyish etish maqsadida erli axoli farzandlarini ko'zlab rus- tuzem maktablarini tashkil qilishga kirishdilar. Aslida bunday maktablar ruslashtirish siyosatiga xizmat qilar va erli axolidan shu maqsadlarni amalga oshiruvchi itoatkor xizmatkorlarni tayyorlardi. Buni o'sha maktablar nomlaridagi kamsituvchi "tuzem" so'zi yaqqol ifodalab turibdi. qolaversa, shu maktablarda o'qitishga mo'ljallab tuzilgan M, A. Terentevning "Russkaya azbuka dlya shkol Sredney Azii" ("O'rta Osiyo maktablari uchun rus alifbesi", 1875), V. P. Nalivkinning "Azbuka dlya russko - musulmanskih shkol osedlogo naseleniya Turkestanskogo kraya" ("Turkiston o'lkasining o'troqlashgan axolisi rus -musulmon maktablari uchun alifbe", 1875), M. M. Orakulovning "Samouchetelg' russkogo yazo'ki dlya russko - musulg'manskih shkol" ("Rus -

---

<sup>5</sup> **Qarang:** S. Fenyubin. o'zbek alifbesi 200 yoshda. - "O'qituvchilar gazetasi", 1984, 22 avgust.

musulmon maktablari uchun rus tilidan mustaqil o'qish kitobi", 1887) va G. S. Yachnikning "Pervaya knijka posle azbuki dlya detey tuzemtsev Turkestanskogo kraya, s perevodom na kirgizskiy i sartovkiy yazo'ki" ("Turkiston o'lkasidagi maxalliy bolalar uchun alifbedan keyingi kitobcha, qirg'izcha (qozoqlar ko'zda tutilgan, chunki o'sha zamonda qozoqlar qirg'iz, qirg'izlar esa qora qirg'iz deb yuritilgan) va sortcha tarjimalari bilan", 1886) kabi alifbe va o'qish kitoblarida ham shu g'oyalar asos bo'lgan. Biroq ular erli axoli turmushidan yiroq bo'lganligi, metodik jihatdan talabga javob bera olmaganligi tufayli tez orada o'qish - o'qitish jarayonida yaramay qoldi. Natijada rus -tuzem maktablarida K. D. Ushinskiyning "Rodnoe slovo" ("Ona tili"), "Detskiy mir" ("Bolalar dunyosi"), L. N. Toltoyning "Pervaya russkaya kniga dlya chteniya" ("Birinchi rus o'qish kitobi"), "Vtoraya russkaya kniga dlya chteniya" ("Ikkinchi rus o'qish kitobi") va boshqa pgu xildagi ilg'or pedagogik talablar asosida yaratilgan darsliklardan foydalanila boshlandi. Ko'p o'tmay shu darsliklardagi ilg'or pedagogik tajribalarga tayanilgan xolda S. M. Gramenitskiy (1859-1919)ning "Pervaya kniga dlya chteniya" ("Birinchi o'qish kitobi", 1898), "Vtoraya kniga dlya chteniya" ("Ikkinchi o'qish kitobi", 1898) va "Tretg'ya kniga dlya chteniya" ("Uchinchi o'qish kitobi", 1899) darsliklari dunyoga keldi va rus - tuzem maktablarida asosiy o'qish vositalariga aylandi.

O'n bir marta qayta -qayta nashr etilgan "Birinchi o'qish kitobi" 2 qismdan iborat bo'lib, dastlabki qismi alifbe edi, unda rus alifbosini o'rgatish ko'zlangandi. Undagi har bir harf rasm va naqshlar bilan ziynatlangandi, o'sha harfning yozma va bosma, bosh va kichik shakllari berilgandi. 87 mavzudan iborat ikkinchi qismi - o'qish va yozish mashqlariga mo'ljallangan matnlar bo'lib, har bir matn oxirida uning mazmunini yafodalovchi so'roqlar bilan mustaxkamlangandi. Shu 87 mavzudan so'nggi ettisi har biri 5 satrdan 12 satrgacha bo'lgan qisqa she'rlar edi. Darslik oxirida shu matnlarga mansub qator so'zlarning ruscha - o'zbekcha - qozoqcha lug'ati ham berilgandir. S. M. Gramenitskiy bu darsliklari bilan rus - tuzem maktablarida o'qish va tarjima metodidan voz kechib, natural ko'rgazmalilik usuliga yo'l ochdi va shu xizmati tufayli ta'lim jarayonini erli xalq xayoti bilan bir qadar yaqinlashtirdi.

Atoqli usulshunos olim Y. Abdullaevning aniqlashicha, S. M. Gramenitskiy shu darsliklari bilan 1900 yilda Parijdagi umumjahon ko'rgazmasida qatnashib, uning kumush medali, 1909 yilda esa Turkistondagi ko'rgazmada oliy mukofot - Faxriy diplomga sazovor bo'ldi. (qarang: Yu. Abdullaev. Ocherki po metodiki obucheniya gramote v uzbekskoy shkole. T. "Ukituvchi", 1966, s. 103). qolaversa, unga milliy uyg'onish harakati namoyondalari bo'lgan yangi usul maktablarning jadid muallimlari xurmat bilan qarashar va maslaxatlar so'rashdan iymnishmasdi. Uning o'zi ham vazifasiga ko'ra Turkiston xalq maorifini nazorat qilishi tufayli "usuli jadidiya" maktablarida o'qish -o'qitish xolati bilan muttasil qiziqar, bu maktablarda nimalar o'qitilayotgani, qanday o'qitilayotgani, qanaqa yangiliklar iaydo bo'layotganidan voqif bo'lishga intilar, ma`qulday ko'ringan yangiliklarni qo'llab - quvvatlashni ham unutmasdi. U quvvatlagan ana shunday yangiliklardan biri - Saidrasul Aziziyning "Ustodi avval" alifbesi bo'ldi.

Sirasini aytganda, "Ustodi avval" ham rus -tuzem maktablarining "musulmon sinf"lariga mo'ljallangan alifbe bo'lib, birinchi o'quv yilida 48 - betigacha o'qish va ko'chirish dastlabki yarim yil davomida (undan keyin xaftada bir kun nomozga ajratilgani holda, asosan, diniy masalalarga oid xikoyatlar o'qitilgan), so'ngra ikkinchi o'quv yilining 2 -yarmida uning 49 - betidan oxirigacha o'qilgan va to'lasincha ko'chirilgan. SHu tariqa 2 yilga mo'ljallangan bu alifbe o'zbek xalqi tarixida yozish va o'qishni o'z ona tilisida amalga oshirish yo'lidagi birinchi alifbe bo'ldi. Shunga qadar eski maktablarda harfni yozish yoki o'qish apaᄇ yoki fors-tojik tilida amalga oshirilgani inobatga olinsa, uning ahamiyati necho'li ekanligi yanada ravshanlashadi.

Saidrasul Aziziy o'z alifbesini tuzishda rus alifbenavisligidan ta`sirlanganini shunday e`tirof etadi: "Ittifoqo, manim qo'limga Rusiya alifbesi tushmak ila voxi avqot maxalida anga nazar solib, biror muallim xuzurida kasb qilmasam ham, Rusiya xatini o'qimoq va chiroylik bo'lmasa ham yozmoqqa qodir bo'lgan edim." (qarang: "Turkiston viloyatining gazetisi"1900, 7-son ). Natijada S.M.Gramenitskiy qo'llashi tufayli Saidrasul Aziziy yaratgan alifbe "Ustodi avval" nomi bilan 1902 yilda 3000 nusxada Toshkentda bosilib chiqdi. O'zbek tilida savod o'rgatishda

yangi bosqichni boshlab bergan bu alifbe 1916 yilgacha 16 marta qayta - qayta nashr etildi. o'sha davrdagi etti rus -tuzem maktabi mudir va o'qituvchilaridan tuzilgan komissiya takliflari bilan ikkinchi nashriga muxim tuzatishlar kiritildi, keyingi barcha nashrlari xech qanaqa tuzatishsiz shu xolicha amalga oshirilgan, bu asar o'zbek pedagogik tafakkurida chinakam burilish yasadi.

"Ustodi avval"ga 20 ga yaqin adabiy - axloqiy asar kiritilgan bo'lib, ularning bolalar yoshi, ruhiyati va saviyasiga muvofiqligiga alohida diqqat qilingan, shu asosda o'zbek bolalariga mo'ljallangan professional ma'nodagi yozma bolauo'ar badiiy adabiyotini bunyod etish yo'lida ham ilk qadam tashlangan edi, Bu adabiy - axloqiy xikoyatlar va aksar she'rlarni muallifning o'zi yozgan, binobarin, u bolalar adibi va shoiri sifatida ham ilk bor qalam tebratib, ilk rus alifbosini yaratgan va uni bolalarbop she'rlari bilan ziynatlab, rus bolalar adabiyotini boshlab bergan Korion Istomin jasoratini takrorladi, Bu Saidrasul Aziziyning o'z xalqi va jamiyat oldidagi muxim tarihiy xizmati bo'ldi,

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash joizki, "Ustodi avval" alifbesi keyin yaratilgan ham "usuli jadidiya", ham rus - tuzem maktablariga mo'ljallangai talay o'zbek va tojik alifbelari uchun ijodiy andaza vazifasini o'tadi. Jumladan, Maxmudxo'ja Bexbudiyning "Risolai asbobi savod" (1904), "Kitobat ul - atfol" ("Bolalar kitobi" 1908) hamda tojik "usuli savtiya" maktablariga mo'ljallangan "Alifboi maktabi islomiya" (1906), Sadriddin Ayniyning "Alifbe" (1906), Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi avval" (1907), Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim" (bu 1917 yilgacha 4 marta qayta nashr etildi), M. Faxriddinovking "Raxbari avval" ("Birinchi raxbar"), Abdulvaxob Ibodiyning "Tasxil ul - alifbo" ("Engil alifbe", 1913), Usmon Abdulxolyaqning "Ta'limi avval" ("Dastlabki o'qish"), Shohiyning "Avvali ilm" (1907), Xilvatiy Namangoniyning "Maktab chiro'i" (1907), Inoyatulla qori Mirzajonning "Tuxfat us - sibyon" ("Bolalarga sovg'a", 1908), P.P. Butnikovning "Salim ul - avval" ("Salomlik ibtidosi", 1907), P. A. Budanovning "Sullami avval"("Byrinchi bosqich",1909), Rustambek ibn Yusufbekning "Ta'limi avval." (1910), Husayn Maqoiyning "Ilmi hol" (1911), Ismatulla Rahmatullaevning "Alifbe ta'limi"

(1915), Muhammadjon ibn Muhammadkarimning "Rahbari avval" (1917) singari alifbelari ana shu silsilani tashkil etadiki, bu alifbelarning aksariyatiga xos xususiyatlarga Hoji Muin o'zining "Alifbelar tarixchasi" asarida qay bir darajada munosabatini bildirgan, qolaversa, bu alifbelarning qaya biri harf; qay biri bo'g'in, qay biri tovush va yana qay biri butun so'z usullariga asoslanib tuzilgan va xuddi shu rang - barang usullara amal qilishi tufayli o'zbek maktablarida o'qish va yozishning xilma - xil usullari mavjud bo'lganligini yaqqol tasdiqlaydi.

Nihoyat XX asrning 20 - yillari arafasida oktyabr to'ntarishi tufayli yuzaga kelgan yangi ijtimoiy- siyosiy vaziyat taqazosiga ko'ra arab alifbosini islom qilish harakati avj oldi, Bunda Abdurauf Fitrat va Qayum Ramazonlar boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" to'garagi, shuningdek, Turkiston Muxtor Jumxuriyati Maorif Xalk Komissarligi huzuridagi "Turk shu'basi" ayrycha rol o'ynay boshladi, Shu tariqa til va imlo, arab alifbosidagi ayrim harflarni islox qilish asosida yangi o'zbek alifbosini yaratish masalalari kun tartibiga qo'yila boshlandi. Shu masalalar atrofidagi baxslar tobora keskin tus ola borishi tufayli taraflar ikki qarama - qarshi qugblarga bo'linib qoldi. Bu xol 1,921 yilning yanvarida Toshkentda Turkiston Xalq Komissarligi tashabbusi bilak tashkil etilgan til va imlo masalasiga oid birinchi qurultoyda yaqqol namoyon bo'ldi. Unda so'zlagan Fitrat "Maorifimizni eski va yozuv bilan kengaytirmak va savodsizlikni bitirmak uchun imlohimiz isloh etmak lozimdir",-deya arab alifbosini isloh qilish taklifini o'rta tashladi.

Boshqa bir notiq Maxmud Hodiev - Botu esa, arab alifbosidan voz kechib, lotin harsrlari asosidagi yangi alifbega o'tishni yoqlab: "... Butunlay hozirgi arab harflarini tashlab, ko'p millatlar tomonidan qabul qilingan lotin yozuvini tilimizdagi tovushlarg'a muvofiq bir xolga keltirib qabul qilish kerakdir", (yuqoridagi ikkala ko'chirma "1921 yil yanvarda bo'lgan birinchi o'lka o'zbek tili va imlo qurultoyining chiqarg'on qarorlari"dan olindi. qarang: Toshkent: Turkdavnashr, 1922, 22 -b.)-degan taklif bilan chiqdi va xatto o'zi tuzgan lotin alifbosini qurultoy qatnashchilari diqqatiga xavola etdi.

Qurultoy intihosida uni boshqarib borgan Turkiston Muxtor Jumxuriyati Maorif Xadq Kamissari Shaxid Ahmadiev har ikki taklifni ovozga qo'yganida Abdurauf

Fitrat taklifi ko'pchilik tomonidan "hozircha amaldagi harflarni tuzatuv haqidagina so'z bo'lsin" degan andisha bilan ma'qullandi. Shunday bir vaziyatda Shokirjon Rahimiyning "Sovg'a" alifbesi 1919 yilda Toshkentda bosilib chikdi. Uni muallif 1922 yilda qayta ishlab, to'ldirib "o'zbek alifbosi" nomi ostida chop etdi, 1924 yilda yana "Sovg'a" nomi bilan qayta bostirdi, 1925 yilda 4 -nashri amalga oshdi. Bu davrda Buxoro Xalq Jumhuriyatida hasan Alining "Til ochqich" (1922) va Mazhar Sadriddinning "qulay alifbo", shuningdek, Xorazm Xalq Jumhuriyatida ham pgu xildagi aliflar tartib berilganligi haqida ma'lumotlar bor. (qarang: Yu, Abdullaev, o'sha asar, 160 - 6. Biroq muallif Xorazmda yaratilgan alifbelarni topolmaganini alohida qayd etadi).

Elbek ham bu davrda til, imlo, alifbo va yozuv qoidalari bilan jiddiy shug'ullanib, boshlang'ich ta'limni takomillashtirishga xizmat qiluvchi "Yozuv yo'llari" (1921) darsligini yaratdi va utsh sinovdan o'tkazgach, qusurlarini bartaraf etgan xolda 1924 yilda "Go'zal yozg'ichlar" nomi ostida qayta nashr qildi. Biroq u boshlang'ich sinflarda o'qishga oid barcha darsliklar muallifi sifatida tanildi.

XX asrning 20 -yillari o'rtalaridan e'tiboran maktab ta'limining ommalashuvi, 30 -yillarda esa majburiy boshlang'ich ta'limning joriy qilinishi, kattalar va o'smirlar orasida savodsizlik va chalasavodlikni tugatish harakatining avj olishi, yangi lotin alifbosiga ko'chilishi munosabati bilan Shokir Raximiyning "Savod" (1929-1931), O. Sharafiddinov, T. Sodiqov va boshqalarning "Mehnat bolalari" (1931, bu fabrika - zavod xuzuridagi maktablarning o'quvchilariga mo'ljallangan alifbe bo'lib, qayta ishlangan nusxasi 1932 yilda "Bilim va mehnat" nomi bilan bosilgan), F. Erg'oziev, A. Yo'ldoshevlarning "Alifbe" (1931 - 1936 yillarda bositshb turgan) asarlari boshlang'ich ta'lim tizimida ishlatilgan bo'lsa savodsizlik va chalasavodsizlikni tutatish kurslariga mo'ljallanib M.Qodirov, G.Mukminov, M.Islomovlarning "Kattalarga o'qish" (1920), I. Raxmatullaevning "Rahbari besavodan" (1925), Shokirjon Raximiyning "Kattalar alifbesi" (1927), S. Naim va Yu. Abdurahimlarning "Yangi qishloq" (1929), "Bitsin savodsizlik" (Sulaymon Shokir ham muallif sifatida qo'shilgan, 1929), S. Mutallibov va Mirzaevlarning "Yangi el, Sh. Rahimiyning "Batraklar alifbesi" (1930), F. Ergashev

Husanxo'jaevlarning "O'smir", N. Said va A. Yo'ldoshlarning "Mehnat" (1932) singari alifbelari yaratilib foydalanilgan. Shuni ta'kidlash joizki, 1929 yildan e'tiboran tartib berilgan va nashr etilgan alifbelarning barchasi lotin yozuvida, binobarin, asrlar davomida xizmat qilib kelgan arab alifbosi o'rnida yangidan qabul qilingan lotin alifbesida edi. Tabiiyki, o'sha davrda avj olgan mafkuraviy kurash motivlari bu alifbelarda o'z ifodasini topmay qolmadi. Bu xol mazkur alifbelarning stabillashuviga, uzoq umr ko'rishiga monelnk qildi. Ularni yaratgan talay mualliflar stalincha qatag'onga uchrashi tufayli o'sha alifbelar ham ta'qiqlandi. Xullas, ana shunday alg'ov - dalg'ovli bir sharoitda Oqilxon Sharafiddinov "Aljfbe"si dunyoga keldi. Bu xususda uning o'zi shunday yozgan edi: "Zamon talabi, davr taqazosi "Alifbe"ni ham takomillashtirishni talab etadi. SHu vajdan 1 - sinf o'quvchilari 1930-1935 yillarda Shokirjon Raximiyning "Sovg'a"sidan ("Alifbe") foydalandilar.

Bu yillar ichida men orginal darslik ustida ishladim. Kitobni yozishda juda ko'p rus va qardosh respublika pedagog olimlari, psihologlari, o'qituvchilar, metadistlar bilan uchrashdim, suxbatlashdim. Pedagogika, ayniqsa, boshlang'ich sinflarga oid ko'p kitoblarni o'qib, o'rgandim. Intilish, izlanishlar zoe ketmadi. 1935 yilgi talabalarim bo'lmish 1 - sinf o'quvchilariga orginal darslik - "Alifbe"ni taqdim eta oldim." (qarang: Alifbe va izlanish. "o'qituvchilar gazetasi", 1974, 20 oktyabr).

Chindan-da, Oqiljon Sharafiddinov bu "Alifbe"ni yaratish uchun uzluksiz iz Sharafiddinov bu "Alifbe"ni yaratish uchun uzluksiz izlandi, boshlang'ich sinfni o'qish jarayonida to'plagan uzoq yillik tajribasiga, qolaversa kompleks tizimli o'qitishga mo'ljallab tuzilgan va 1928 yilda "Bilim va mehnat", 1929-1930 yillarda esa "Mehnat bolalari" nomlari bilan chop etilgan alifbelari tajribasaiga suyandi, bolalar shoirlariga yozdirib ular tanlovini o'tkazdi. o'sha tanlovda Shukur Sa'dullaning 17 ta jajji she'ri unga ma'qul tushdi va ularni o'rganilayotgan harfni yozish va o'qish maqsadiga ko'ra o'z "Alifbesi"da joylashtirdi. Shu xildagi mashaqqatli mehnat natijasida yuzaga kelgan "Alifbe" dastlab lotin alifbosida 1938yildan 1940 yilgacha, 1941 yildan esa to 1996 yilgacha kirill alifbosida uzluksiz qayta-qayta bosilib turdi. Uning dastlabki nashri 400 ming nusxada edi,

so'nggi har bir nashri ham 400-500 ming nusxa orli'ida bo'ldi. o'tgan 55 yil davomida xalqimizning uch avlodini savodxon qilgan bu kitobning umumiy tiraji sal kam 25 million nusxani tashkil etadi. Bu qadar malmoqli adadda tarqalish va ommaviy o'qishga sazovor bo'lish har qanday kitobga nasib qilavermaydi. ha, shu muddat davomida Oqilxon Sharafiddinov "Alifbe"si kirib bormagan o'zbek xonadoni va undan yozish va o'qish sabo'ini olmagan o'zbek qolmadi. Bunda muallifning M. Mirzaaxmedov va bilan hamkorlikda birinchi sinf o'qituvchilariga mo'ljallanib yaratgan va 1959 yilda ommaviy nashr qilingan "Alifbeni o'qitish metodikasi" qo'llanmasi ham ayrica xizmat qildi. Binobarin, uning bu tarihiy xizmatini buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning:

Xaq yo'linda kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning xaqin ming ganj ila,

- degan xikmatida ta'kidlanganidek, baholash oson emas, lekin Oqilxon Sharafiddinov siymosi XX asrda o'zbek xalqining buyuk muallimlaridan biri, muallimlar muallimi bo'lib qolaverdi. U o'z alifbesini takomillashtirish ustida muttasil izlandi, nihoyat davr shiddatiga kuchi etmay qolgach, "yangi programma va yangicha o'qitish munosabati bilan" uni qayta ko'rish zaruriyatini xis qilishi tufayli 1974 yilda boshlang'ich ta'lim muammolarining yirik tadqiqotchisi qumri Abdullaevani hammualliflikda izlanishga da'vat etdi. Hamkorlik esa "Alifbe"ning yanada takomillashuviga, qolaversa, yana 20 yilcha muddat davomida o'qish va o'qitishda yaroqli bo'lib qolishini ta'minladi.

Oqilxon Sharafiddinov e'tiroficha bunda Qumrihon Abdullaevaning "o'z mahorati, bilimi va zakovatini namoyish" qilavergani ham ayrica rol o'ynadi. Bu "Alifbe" shu qadar fazilatlarga ega bo'lishiga qaramay, unda sho'ro davri mafkurasi kasri seziladi, qolaversa, xatto ayrim o'rinlarda kompilyativlik qusurlaridan ham qutula olmagan edi. Undagi bunday qusurlar xaqida o'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon "Alifbe"dagi sirli qop" ("Yoshlik" jurnali, 1988, 3 -son, 56 - 59 b) va yana boshqa bir sevimli bolalar shoiri Tursunboy Adashboev "Sirli qop" - taxrirbop ("Yoshlik" jurnali, 1988, 10 -son, 75 - 76 b), shuningdek, o'zga bir qator mualliflar kuyunchaklik bilan yozgandilar.

Ayniqsa, A.Obidjon "Alifbe"ni "yaratish va takomillashtirishdagi katta mexnatlar, izlanishlar uchun mualliflar oldida ta'zim bajo keltirishi"ni ta'kidlab, undagi qator qusur va kamchiliklarni asosli qilib ochib tashladi va ularni bartaraf etishga oid takliflarni ham o'rtaga tashladi. Inchunin, u talay harflarning, jumladan, "A", "O", "N", "L", "U" va boshqalarning yozilishini o'rganishga bag'ishlangan saxifalarga berilgan rasmlar o'sha harflarni o'rganishga to'la xizmat qilmasligini, qolaversa, rus "Azbuka"siga kompilyativlik bilan yondashganliklaridan "M" harfida o'zbek turmzpliga u qadar mos kelmovchi "malina" so'zi va uning rasmini, "B" va "Sh" harflari saxifalarida rus xalq ertaklari "Bo'g'irsoq" va "Sholg'om" mazmuniga mos rasmlarni berganliklari, bunda ruslardagi "malina"ning o'zbeklarda "parmonchak" deyilishini, "Bo'g'irsoq" so'zidagi etti harfdan beshtasi -o', g', r, s, q harflari xali o'rganilmagan bir sharoitda bu so'zni ko'chirib yozish ko'r- ko'ronalikka olib kelishini o'ylab ham ko'rmaganliklarini mantiqli taxlil qilib ko'rsatdi. "Bolani chalg'itishga, uning o'rganishi va o'zlashtirishni qiyinlashtiradigan" bunday misollar "Alifbe"da bexad ko'pligini ta'kidlab, "darslikni deyarli qayta tuzish kerak" degan xulosani o'rtaga tashlaydi. So'ngra o'zi kirill yozuvidagi o'zbek alifbosidagi 33 harf va 2 ta belgining har birini qaysi so'z va rasm bilan ifodalashga doir aniq takliflarini bayon qiladi, uning takliflarida talay e'tiborli nuqtalar bor. Shunga qaramay, d, q, j, e, ch, sh, yu, ya harflariga oid takliflarida e'tiroz uyg'otadigan muloxazalar ham etarli. Chunki, o'sha harflarga oid so'zlar va rasmlar o'zbekona turmushga o'zlashgan esa -da, xali 1 - sinf o'quvchilari anglashiga qiyinchilik tug'dirishi tabiiydir. "E" harfida elkan va uning rasmi taklif qilinsa, "Sh" harfida yana rus xalq ertagi "Sholg'om"ga oid rasmlar taklif qilingan. qolaversa, "d" harfida "xirmondagi don", "q" harfida "qand" rasmlari taklif qilinadiki, bularda aniqlik etishmaydi, "yu"da oktyabryatlar yulduzchasi, "ya"da yashik rasmlari taklif qilinganki, bularda ham o'sha davrga xos g'oyalar aksini topgan, "yashik" o'zbekcha so'z emas. q. Abdullaeva mazkur "Alifbe"ni pgu takliflar asosida bir qadar tuzatishga urindi, biroq XX asrning oxirlarida lotin alifbosiga ko'chilishi munosabati bilan o'zlari safiga yangi mualliflarni qo'shgan xolda tuzgan "Alifbe"da shu takliflardan unumliroq foydalandi. O. P1arafiddinov,

q. Abdullaeva, K. Nazarov, M. G'oxo'jaeva, S. Ma'rufjonovlar hamkorligida lotin yozuvida bitilgan "Alifbe" ("Shodlik") 1996 - 2000 yillarda besh marta chop qilindi. Unda 1 harfida qushlarini, 1 harfida lola, u harfida uzum, o' harfida o'roq, G harfida fil, dg' harfida g'oz rasmlarining berilishida qay darajadadir A. Obidjon takliflari ta'sirini sezmaslikning iloji yo'q. Binobarin, bunday ta'sir izlari keyin yaratilgan alifbelarda ham ko'zga tashlanadi. Jumladan R. Safarova, M. Inoyatova, M. Shokirova, L. Shermamatovalar yaratgan va 2003 yildan hozirgacha besh nashri amalga oshgan "Alifbe"da ham bunday xolatni kuzatish mumkin. Inchinun, tilga olingan "Alifbe"dagi a harfida ayiq, p harfida non, 1 harfida lola, ` harfida baliq rasmlari berilganida o'sha takliflarning amaddagi ijrosi sezilarlidir. Biroq qator ijobiy fazilatlari mavjudligiga qaramay, o'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan darslik sifatida tasdiqlanib qator yillar davomida foydalanib kelinayotgan bu "Alifbe" sifatini ko'tarish uchun xali talay ishlarni amalga oshirish zarur. Garchi u bichimi bejirim, muqovasi nafis, a'lo sifatli oq qog'ozda chop etilgan, muqovasida ham, ichida didaktik maqsadlarda berilgan rasmlari rangli ishlanganligidan o'quvchi kayfiyatini ko'tara oladigan, qolaversa, ichidagi didaktik materialda, qisman bo'lsa -dag milliylikni ifodalaydigan unsurlar sezilarli in'ikos topgan esa -da, xali bezatilishida ham, didaktik materialning taqdimida ham qator qusurlar sezilib turadi.

Ma'lumki, har qanday "Alifbe"ning didaktik yorqinligi didaktik material va uning mazmunini ochishga, to'ldirishga xizmat qiluvchi rasm va bezaklarining mantiqiy mutanosibligi, ifodaviy aniqligi, tiniqligi bilan belgilanadi. Garchi bu "Alifbe"ni ziynatlashga R. Zufarov, A. Mamajonov, X. Ziyoxonov, N. Agapova, E. Nurmanov va R. Egay singari rassomlarning kattagina guruxi ijodiy xizmatlarini ayamagan bo'lsalar -da xali ular chizgan rasmlarda, bezaklarda, chizma va naqshlarda 1 - sinf o'quvchisi ilg'ashi, idrok qilishi qiyin nuqtalar, mavxumliklar qalashib yotibdi. CHunonchi, 20 -betda cholning o'quvchida taajjub uyg'otuvchi qiyofasidan nimani anglash mumkin? 15 -betda ikki ayol yuzma -yuz turib gaplashayotgani ifodalangan rasm berilgan. Birining o'ng qo'li o'tli elkasida, sochining turmaklangani bo'lmasa o'sha ayol yuzi tuzilishida erkakchalishlik

alamatdari sezilib turibdi. 34 -betda "Tulki va uzum" ertagi mazmunini ifodalovchi ikkita rasm berilgan, ammo uning ikkinchisi shu qadar mavxumki, undagi chol qiyofasiga va manzaraning o'ziga bir qadar yorqinlik kiritish zarurday. 33 -betning pastki burchagida ellipsisnamo doira ichida berilgan magnit va unga aloqador detallardan 1 - sinf o'quvchisi biror ma'no uqishi qiyin. 47 -betda O harfiga oid so'zlar va rasmlar qatorida qurbaqa rasmi berilgan, ammo shunisi ajablanarliki, unda baqa tasvirlangan. Rassomlarning o'zlari baqa va qurbaqani farqlay olmas ekanlar, ulardan saboq o'rganuvchi 1 - sinf o'quvchilari nima qilishsin? SHuningdek, 24 va 53 -betlarda soat, 51-betda besh yulduz, oy, qalam va toshbaqa rasmlari nima maqsadda berilganini anglashning iloji yo'q, chunki ular o'sha betlarda berilgan harflarga deyarli aloqador emas. Bular darslikdagi birlamchi belgilar, xolos. Masalaning asosiy jihati uning mazmunida. Axir 1 - sinf o'quvchisi rasmni tomosha qilish orqali savodini chiqarmaydi - ku? Avvalo, darslikda berilgan harflarning ayrimlari har xil yozilgan. Masalan, 11-betda katta A - harfining yozma ko'rinishida shunday nuqson ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, 59 -betda ham V-harfining kichik ko'rinishi ikki xil yozib ko'rsatilgan. Bunday qusurlar darslikning boshqa saxifalarida ham ko'zga tashlanadi. Masalan, katta - harfi (12 -bet) va kichik -harfi (18 -bet) bir xil berilgan. Bu esa o'quvchilarni chalg'itishga sabab bo'lmoqda. Nahotkii, xozirgi texnika rivojlangan bir paytda bu darslikda harflarni farqlab ko'rsatishning iloji bo'lmasa...

Hammaga ayonki, 1 - sinf o'quvchisi alifbeni o'qish orqali atrof - muhitni ham anglay boshlaydi. Biroq atrof- muhitni ifodalovchi so'zlar noto'g'ri yozilgan bo'lsag'uni qanday qilib ongli o'qish va yozish mumkin? Masalan, 31-betda "Nurilla" so'zi keltiriladi. Aslida bu so'z "nur" so'ziga "ullo" qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan. Nahotkii darslik mualliflari shevada talaffuz qilinadigan so'zni adabiy tilda qanday yozilishini bilmasalar?!

"Alifbe"da berilgan ayrim so'zlar 1 - sinf o'quvchisi uchun tushunarsiz. Ular bunday so'zlarni idrok qilishda qiynalishlari tayin. Chunki, terim (35 - bet), palak (47 -bet) singari so'zlarni izohsiz tushunishlari qiyin. Bu yoshdagi bolalarda ko'rgazmalalikka qiziqish yuqori darajada taraqqiy etgan. Ular ko'proq o'zlari

ko'rgan, bilgan eshitgan, tasavvur qilgan narsa va voqea - hodisalargagina qiziqadilar, ularga oid ma'lumotlarni ichki chanqoqlik bilan o'zlashtirishga harakat qiladilar. Ammo mavhum tushunchani idrok qilishga va ular haqida fikrlashda bir oz qiynaladilar. Bundan tashqari, L -harfi ikkita tovushni ifodalashi (ya'ni portlovchi va sirg'aluvchi) mualliflar e'tiboridan chetda qolgan. Chunki bu sahifada atigi bittagina sirg'aluvchi L -harfiga oid ajdar so'zi keltirilgan. Sirg'aluvchi L -harfiga doir bunday so'zlarni ko'paytirish zarur. Chunki 1-sinf o'quvchilarida yoshligidanoq tovushlarni ajrata bilish ko'nikmasini shakllantirish lozim.

"Alifbe"ni o'qib o'rganish jarayonida 1 - sinf o'quvchilarining o'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirishga ham e'tibor berilmo'i shart. Lekin shu makgaldai kelib chiqib darslikda berilgan ayrim so'z birikmasi va gaplar tahlil qilinsa, qandaydir mavhumlik ko'zga tashlanadi. Masalan, darslikning 63 - betida "Fozil to'p tepishni sevadi" gapi berilgan. Gapda qo'llangan "sevadi" fe'li mantiqan g'aliz, chunki "to'p tepishni sevish mumkinmi?!" Yoki 69 -betda Zafar Diyorning "Archa" she'ri berilgan. She'rning nihoyasida shunday savol qo'yiladi: "Archa bayramiga qanday tayyorgarlik ko'rdingiz" Mualliflar "Archa bayrami" birikmasi o'rniga "yangi yil bayrami" tushunchasini ishlatishganida hodisa mohiyatini to'g'ri ifodalagan bo'lisharmidi?

Mualliflar darslikni tuzish jarayonida oddiydan murakkabga qarab borish tamoyiliga amal qilganlar - u, ayrim o'rinlarda unga amal qilmaganlar. Buni darslikning ayrim sahifalarida berilgan so'z va gaplarning mutanosibligida kuzatish mumkin. qay bir betda ko'p so'z va gaplar berilsa, ayrimlarida esa, aksincha, ozaytirganlar. Chunonchi, 45 -betda 46ta, 59 -betda 32 tag 61-betda 28 ta, 63 -betda 31 ta so'zdan iborat matnlar berilgan, E'tibor berib qaralsa, mavzular o'rganib borilgani sari o'quvchi o'qishi lozim bo'lgan so'zlar miqdori nisbatan kamayib borgan. Vaholanki, DTS dagi talab boshqacha: harfdan harfga o'tilgan sari so'zlar miqdorining o'zgarishida mutanosiblik saqlanishi, bir meyorda kamlikdan ko'plikka tomon borilmo'i uqtiriladi.

Shu talab mantiqidan kelib chiqilsa, umuman, "Alifbe"da necha so'z bo'lishi lozim? Hdr bir harfni yozish va o'qishni mo'ljallab netchadan so'z yoki tushunchani ifodalovchi rasm berish darkor? Gap pgundaki, "Alifbe"ni o'rganish tugagach, 1 - sinfda o'qish yakunlanayotganda o'quvchi 35 so'zni burro o'qishi talab qilinadi. Bu ovoz chiqarib o'qishda belgilangan qat'iy norma sanaladi. Afsuski, bunda ikki narsa etarli darajada hisobga olinmaydi: burro - burro o'qigan 35 ta so'z uqib, tushunib olinganmi? SHu so'zlar ifodalagan tushunchalar o'quvchi tomonidan idrok qilinganmi? Ikkinchisi- 1 minutda "Alifbe"ni xatm qilgan o'quvchi nechta so'zni to'g'ri, chiroyli va bexato yoza bilmo'i kerakligining ham normativi bor: bu 10-12 ta so'zdir. Chinakam savodxonlikka bu muammolarni echmay turib erishishining iloji ham, imkoni ham yo'q.

Aftidan masalaning bu tomoni ilk o'zbek alifbesini tuzgan Saidrasul Aziziyning ham e'tiboridan chetda qolmagan. U "Ustodi avval" ning alifbe bo'limida 783 ta so'zni bergan, shulardan 454 tasi ot, 100 tasi sifat va ravish, 5 tasi son, 12 tasi olmosh, qolgan 212 tasi fe'l turkumiga mansub bo'lgan. (qarang: I.Abdullaev, Eslatilgan asar, 114 -bet). Bu arab alifbosi asosida yaratilgan o'zbek alifbosidagi 28 harfga berilgan so'zlar miqdori. Kirill alifbosidagi 33 harf va 2 belgi asosida yaratilgan va nisbatan takomillashtirib borilib, 1984 yilda 4 -nashri amalga oshirilgan O.Sharafiddinov va q. Abdullaevalarning "Alifbe" kitoblarida esa 3168 ta so'z berilgan, shulardan 58 tasi rasmga qarab yoki katakchalarni to'ldirib topiladigan so'zlardir. hozir amaliyotda qo'llanilayotgan R.Safarova boshchiligidagi jamoa tomonidan lotin alifbosidagi 26 harf va 1 tutuq belgisi asosida tartib berilib, 2004 yilda ikkinchi marta nashr etilgan. "Alifbe" da esa jami 2267ta so'z berilgan, shulardan 543 tasi rasmga qarab, yoki katakchalarni to'ldirib topiladigan so'zlardir. Ko'rinib turibdiki, aljfboda harflar soni ko'payganda so'zlar miqdori ham ko'paygan, ozayganda esa so'zlar ham miqdoran ozaygan. Albatta, bu so'zlarning qaysi so'z turkumiga mansubligi nuqtai nazaridan qaralsa, ot va fe'l turkumlaridagi so'zlar nisbati hamisha o'irlik qilishi tabiiydir. Lekin shu so'zlarning u yoki bu harfga daxldorlik nisbatiga qaralsa, O.Sharofiddinov, Q.Abdullaevlarning yuqorida eslatilgan "Alifbe" (1984) sida me'yorda

mutanosiblik saqlangan. Oddiydan - murakkabgacha, oz so'zdan ko'p so'zga uzluksizlik asosida o'tish printsiptiga amal qilingan, biroq R.Safarova boshchiligidagi mualliflar yaratgan "Alifbe" (2 -nashri, 2004) da me'yor mutanosibligiga ko'pincha amal qilinmagan, harfdan harfga o'tgan sari so'zlar soni goh kamaygan, gox ko'paygan, bunda u yoki bu harf xali o'rganilmaganligiga hamisha diqqat qilinaverilmagan. Tabiiyki, bunday xolat " Alifbe"ni o'rganuvchilarda qiyinchiliklar tug'dirgan, ularda aksar xolda notanish harflar ishtirokida matnlarni ko'chirib yozish yoki o'qish bezdirishdan iborat ruxiy xolatni yuzaga keltirgan.

"Alifbe"da harflarni qay tartibda - qabul qilingan alfavitga qat'iy rioya qilingan xoldami, yoki xali harfni tanimaydigan, binobarin; uning qat'iy tartibi xaqida xech qanaqa tasavvurga ega bo'lmagan, qalam yoki ruchkani jajji barmoqlari bilan maxkam siqib, butun vujudidagi diqqatni bir markazga yig'ishga intilib, terga botib, bor kuchi bilan qalam yoki ruchkani qog'ozga bosib u yoki bu harfni ilk marta yozishni mashq qilayotgan bolakay uchun unga tushunarli bo'lgan oddiy va sodda so'zlardan boshlash kerakmi? Bu -o'ziga xos jiddiy muammo, albatta. Zero, alifboda harflar tartibini ilk bor kim belgilagan, qolversa, qay bir harf birinchi, qaysinisi ikkinchi o'rinda turishi hamisha qat'iy bo'lmo'i shartmi? Aslida bu olamni alifbesimon tartibga va tizimga solib o'rganishga, boshqarishga intilgan va bu ishni osonlashtirish yo'lini izlagan tizimkor va tasnifchi inson kashfiyotlaridan sanalsa -da, harqalay "Alifbe"da harflar tartibini bola tushunadigan so'zlar yasalishida faol bo'lgan harfdan boshlagan ma'qul. Negaki, L.Uspenskiy to'g'ri ta'kidlaganidek: "Alifbe -bu alifbedir... Kim biladi, undagi birgina rasmga tikilib qarashdanoq, kimdadir VATANni idrok etish tuyg'usi junbishga kelar. . . Ko'pchilik uchun esa, o'ylashimcha, u bilan dastlabki muloqotdanoq shunchaki xech narsani o'ylamaydigan uquvsiz va quvnoq bolalikning mavjuddigi emas, balki HAYOT, xaqiqiy HAYOT boshanadi. Binobarin, alifbe -o'qishnigina o'rganishga mo'ljallangan oddiy qo'llanmagina emas, alifbo hammadan avval qay bir ma'noda bizlar uchun olamni idrok qilish va anglashning tizimi va usuli hamdir". (qarang: Rastyom s bukvarya. -

"Komsamolg'skaya pravda", 1974, 1 sentyabrya). Shu mantiqqa suyanilsa, "Alifbe"da harflar tartibini bolakayga tushunarli oddiy so'zlardan boshlamoq ma'quldir. Bunda harflar ifodalovchi tovushlarning o'zaro yaqinligi va oxangdoshligiga asoslanmoq lozim. "Shodlik" va "Alifbe"da bunga qisman rioya qilingan. Jumladan, "Shodlik" da harflar o, t, a, n, i, l, m, u, d, ng, k, o', e, b, y, r, q, s, z, v, g, g', p, h, sh, f, ch, j, x va ' (tuguq belgisi) tartibida berilgan bo'lsa, "Alifbe"da o, n, a, l, m, t, l, b, k, r, o', d, u, y, e, ng, s, h, sh, p, q, ch, j, g, g', z, v, x va ' (tuguq belgisi) tartibiga ega. Ikkala tartibda ham harflar oxangdorligiga barcha o'rinlarda rioya qilinmagan. Aytaylik, "Shodlik" n va ng, e va y, p va f, x va h tovushlari, "Alifbe" da n va ng, p va f, x va h tovushlari yondosh berilmagan, natijada o'quvchi o'sha tovushlarni farqlashga qiynaladi. Bizningcha, bu tartibni o, t, a, n, l, m, l, b, d, k, o' u, e, y, r, q, x, h, s, z, sh, g, g', ng, p, v, f, ch va ' (tuguq belgisi) shaklida belgilash tovushlarni idrok qilishda birmuncha engillik tug'dirishi tayin haqiqatdir.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinlidirki, Nayat Boqi Otametovning ilk o'zbekcha a/lfbesidan hozir amalda qo'llanilayotgan "Alifbe" gacha bosib o'tilgan tarixiy yo'l- 200 yilni, 2 asrni tashkil etadi. Bu davrda turli mualliflar tomonidan turli yillarda tartib berilgan alifbelarning umumiy soni ham yuzdan oshadi. Ularnin tuzilishi, mazmun va mundarijasi, bezatilishi ham har xil. Shunga qaramay, o'sha alifbelarning barchasiga xos yana bir mushtarak xususiyat shundaki, ularning aksariyati Ismoil Gaspiralining evropacha tezkorlik asosida yozuvni o'rgatish usuliga asosida muvofiqlashtirib tuzilgan edi. holbuki, an'anaviy eski maktablarda yozuvni o'rgatish "Mufradot" dagi 3 bosqich - mufradot, murakkabot va muqattaotga amal qilingan xolda 2 - 4 yil davom etar, bu ko'pincha yozuvni o'rganayotgan bolaning ishtiyoqi darajasi bilan belgilanardi. qolaversa, qadimiy yozuv bo'yicha savodxonligi tashkil etilgan Sharq mamlakatlarining aksariyatida, jumladan, Xitoy va Yaponiyada xozir ham alifbeni o'rganish muddati 6 yil qilib belgilargan. Jadidlar xuddi shu muddatni 4 - 6 oyga keltirgan xolda qisqartirishga muvaffaq bo'ldilar va an'anaga aylanib, "Usuli savtiya" va "Usuli jadidiya"

maktablariga nisbatan xalqning ishonchini kuchaytirdilar, shu bilan birga o'zbek maktabida ta'lim jarayoni takomillashuviga hamon xizmat qilib davom etayotir.

Biroq bu usul endilikda tag'yirtalab bo'lib qolmoqda. Zero, istiqlol g'alabasi tufayli qabul qilingan harflar asosidagi milliy alifbedagi 26 ta harf, 3 ta harfiy birikma va tutuq belgisini yozishni o'rganish 4 oyda amalga oshirilmoqda. Bu muddat savod chiqarish ko'zda tutilgan boshlang'ich ta'limga ajratilgan 4 yillik o'qish - o'qitishning o'ndan bir qismini tashkil etadi. Natijada bolalar aksar xolda alifbedagi barcha harflarning yozuvini mukammal o'rgana olmayotir. Buning sababini Beshariq tumanidagi 30 -umumiy o'rta ta'lim maktabining tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchisi Azimjon Po'latov o'zining "Ma'rifat" gazetasida bosilgan "Alifbe"ni o'rganish davri: bola uchun etarlimi? degan maqolasida shunday izoxlaydi: "Endi sinfda bilim va saviyasiga ko'ra turli xil toifa o'quvchilar jamlanishini bir o'ylang. Yanayam yirikroq qamrovda qaraydigan bo'lsak, ularni quyidagi ikki: ko'pchiligi oilalardan maktabga kelgan va ozchilik qismi bo'cha tarbiyalanuvchilari bo'lgan guruxga bo'lish mumkin. Tabiiyki, o'qituvchi bo'chadan kelgan zukko o'quvchi bilan ko'proq ishlaydi. hali ko'pchilikka ko'nikmagan, oila qucho'idan kelgan bolaning sinf sharoitiga moslashguniga qadar esa 1-2 oy o'tib ketadi. Vaholanki, bu paytda alifbedagi 10-12 ta harf o'rganib bo'linadi. Va natijada oiladan kelgan bola savodxonligida bo'shliq poydo bo'ladi. Agar o'quvchi zexnli bo'lsa, kemptik joy to'lib ketadi, aksincha bo'lsa, savodi chalaligicha maktabni bitiradi." (qarang: "Ma'rifat" gazetasi, 2007, 24 yanvar). Ko'pgina boshlang'ich sinf o'qituvchilarining e'tiroficha, o'quvchilar savodxonligi darajasining pastligiga 1 - sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi (30 - 35 nafarligi) ham sabab bo'layotir. o'qituvchi shuncha o'quvchiga baravar e'tibor qilish imkoniyatidan mahrum bo'lib qolayotir. Bugun maktablarimizdan yoppasiga chin savodxon va bilimli avlodni tarbiyalashni talab qilar ekanmiz, avvalo, masalaning bu tomoniga ham to'g'ri nazar solishimiz darkorga o'xshaydi. Buning uchui boshlang'ich ta'lim o'rta umumta'limning alohida bosqichi ekanligini inobatga olgan holda 1-4 sinflarda boshlang'ich ta'lim kontseptsiyasiga amal qilingan holda o'quvchilar sonini 15 - 20 nafardan oshirmaslik, "Alifbe" saboqlarini III chorak

oxirigacha davom ettirish, keyingi chorakda umumlashtiruvchi savodxonlik darslari sifatida o'qish va xusniyat- chiroyli yozish malakalarini takomillashtirish ustida o'ylab ko'rmoq lozim.

Xullas, "Alifbe" - bola qo'liga oladigan ilk saboq kitobigina emas, balki keyingi barcha saboqlarining ochqichi sifatida barcha darsligu qo'llanmalardan ko'ra bejirim, ko'rkam va nafis muqovali, a'lo navli oq qog'ozning har bir sahifasida u yoki bu harfning yozma va bosma, bosh va kichik shakllarining g'oyatda aniq va tiniq holda o'z o'lchamida berilganligi, har bir harfga oid so'z, gap va matnlarda mazmunni ochishda, to'ldirishda o'sha harfning faolligiga e'tibor qilinganligi, rasmlar, naqshlar ham shunga mosligi tufayli o'sha harfni ham, o'sha gap yoki didaktik matndagi mazmunni ham ko'rimli tarzda ifodalay olganligi bilan ajralib turishi va dastlabki qarashdanoq diqqatni tortmo'i shart. Shu sababli bugungi kunda bolalarimiz o'qiyotgan "Alifbe" garchi hozirgi pedagogic tafakkurimiz hamda ko'p sonli muallimlar, ijod ahli, rassomlar va matbaa hodimlari tajribalarining hosilasi esa -da, hamon uni takomillashtirishga daxldor yuqorida bayon qilingan qator muammolarni milliy g'oya, "Ta'lim haqida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va boshlang'ich ta'lim tizimiga oid DTS talablariga uyg'un holda hal etish zamonamizning kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifasiga aylanib qolayotir.

## **II.2 A.Avloniyning Ilk maktab darsliklarida pedagogik qarashlar**

Farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u davlat, jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk ijtimoiy ishdir, u shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog'liq. Avloniy so'zlari bilan aytganda «... tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir».

Abdulla Avloniy inson tarbisini bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan uch yo'nalishga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi. Inson uuchn avvalo badan salomat bo'lmog'i zarurdir, badan soq bo'lgandagina inson uchun zarur bo'lgan boshqa amallarni singdirish mumkin. Buning uchun ichkilik,

ko`knor, nasha kabi inson badanini bevaqt zalolatga, tubanlikka olib boruvchi, salomatlikka zarar, «ba`zi harom, ba`zi makruh» narsalardan asrashi kerak. Bu esa Avloniy yozishicha, fikr tarbiyasi uchun zamin yaratadi. Fikr tarbiyasi farzandni komil inson darajasiga ko`tarishda muhim omil hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda asosiy mas`uliyat o`qituvchi zimmasiga tushadi. Chunki muallim dars jarayonida o`quvchilarni fikrlashga, hari qanday voqyeahodisaning mohiyatini chuqur idrok qilishga o`rgatadi. Bu o`rinda A. Avldoniy ta`lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Inson aqliy faoliyatinnig ifodasi bo`lmish fikr tarbiyasi orqaligina katta sharafiga, barkamollikka erishadi, bu o`rinda o`kituvchinnig fikrlash doirasining kengligi, bilim saviyasinnig har jihatdan yuksakligi o`quvchilari tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi: o`quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo`lgan yaxshi xulqlarni egallashga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo`lishga o`rgatadi.

Abdulla Avloniy asarnnig «Yaxshi xulqlar» bobida fatonat, diyonat, islomiyat, nazorat, g`ayrat, riyozat, qanoat shijoat, ilm, sabri hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni sevmiq, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rijo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat, afv haqida atroflicha fikr yuritadi, o`z qarashlarini dalillash uchun Qur`oni karim oyatlaridan, hadisi sharifdan namunalar, ulug` mutafakkirlar Aflotun, Arastu, Suqrot, Buqrot, ibn Sino, Mavlono Rumsiy, Shayx Sa`diy, Mirzo Bedil fikrlarini keltiradi.

Jadidchilik harakati namoyandalari qarbiy Yevropa ma`rifatparvarlari kabi ilm-ma`rifatni, zamonaviy taraqqiyotni bayroq qilib ko`tardilar, taraqqiyotga to`g`anoq bo`layotgan mutaassib ulamolarga, qadimchilarga qarash keskin kurash olib bordilar. Shuni unutmaslik kerakki, o`zbek ma`rifatparvarlarining Yevropa ma`rifatparvarlaridan ajralib turadigan asosiy jihati shundaki, ularnig faoliyati zaminida millatni mustamlakachilik zulmidan ozod etish, istiqlol g`oyasi yotar edi. Shuning uchun ham jadid mutafakkirlari oq va qizil imperiyaga birday ma`qul

emas

edilar.

Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarida aql va ilmning yuksak darajada ulugʻlanishi bevosita insonni ulugʻlash bilan uzviy bogʻlanadi. Chunki Olloh insonni barcha mavjudodlardan, mahluqotlardan ulugʻ qilib yaratdi. Unga ikki dunyo saodatiga erishishdek buyuk maqsad uchun Aql berdi. Inson shu Aql yordamida ilmni rifatni, taraqqiyotni egallaydi, dunyoni boshqaradi. Mana A. Avloniyning aqlga bergan taʼrifi: «Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir... Janobi haq insonni hayvondan soʻz va aql ila ayirishdur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallallahu alayhi vassalam afandimiz: «Ey insonlar! Aqlingizga tavozeʼ qilingiz. Siz janobi haq buyurgan va qaytargan narsalarni aqlingiz ila bilursiz», demishlar».

Abdulla Avloniy inson salomatligi toʻgʻrisida fikr yuritgan ekan, uning asosiy omillaridan biri tozalika haqida alohida bob ajratadi. «Nazofati» deb nomlanuvchi bobida odamni xalq oʻrtasida hatto Olloh qoshida sevimli qiladigan vosita pokizalik - nazofatdir. Inson nafaqat oʻz badanini, kiyim-kechagini, shu bilan birga, yashab turgan joyini, muhitni, shahrini pokiza saqlashi kerak. Atrof-muhitning nopokligi turli-tuman kasalliklarning paydo boʻlishiga sababdir. Afsus bilan aytish kerakki, Avloniy yashab turgan va undan keyin ham mustamlaka maʼmurlari oʻlkannig obodonchiligi va aholisinnig salomatligini xayollaoriga ham keltirmadilar, faqat shaharlarning mustamlakachilari yashaydigan qismigagina eʼtibor berdilar. 1907 yilnig oxirlarida Turkiston oʻlkasiga sayohat qilgan atoqli tatar maʼrifatparvari, yozuvchisi Abdurashid qozi Ibrohimov (kelib chiqishi oʻzbek) chor Rusiyasining Turkiston oʻlkasida olib borayotgan dahshatli mustamlakachilik siyosatini fosh etgan edi: «Rus Toshkandida qoyat tartibli bino va savdo uylari, tekis uylar, elektr nurlarida sayr qilib yurishlar Ovruponing bir namunasidir. Ammo musulmon Toshkendi aksincha. Ilk bahorda, bahor oxirida shahar ichida uylardan piyoda yurib oʻtishning ham iloji boʻlmay qoladi. Buni hatto soʻz bilan ham taʼriflab boʻlmaydi... holbuki, shahar bir shahardir, Toshkanddir, idorasi, kirim-chiqimi bir, umum aholisinnig asosiy qismi musulmonlardir. Daromad asosan musulmon qismidan olinur, sarf-harajatlar faqat

xristian qismiga ajratilur. hokimiyat qudrati ruslarda, mamlakat daromadi ham ruslarda. Rus qismlaridagi yo'llarga umum daromaddan pul ajratiladi, ammo musulmon qismdagilarning yo'llari nima bo'lsa bo'lsin, bir so'm ham ajratilmaydi: na bir tekis yo'l, na bir chiroq bor, hech vaqo yo'q». Jihillik, qofillik, tanballik ilmsizlikdandir. Ilm insoniyat baxt-saodati, istiqboli yo'lini yoritib turuvchi mash'aldir. Ilm bilan inson martabasi yuksaladi, nominishoni ulug'lanadi, o'zi izzat-hurmatga sazovar bo'ladi. A. Avloniyning ulug'zamondoshlaridan Ahmad Donish «Fiqh va faroyiz, hisob va sijil tib, nujum, shoirlik, muallimlik madaniyat uchun eng foydali bo'lib, shu bilan ilmning o'sishiga yo'l ochadi. Biroq bulardan asl maqsad xalqqa foyda keltirishdan iborat bo'lishi lozim. Butun hunarlarning a'losi ilmdir, uning pog'onalari cheksizdir», - deb yozadi «Navodirul-voqoye» asarida.

A. Avloniy «Turkiy guliston...» asarida ushbu masalaga «Ilm» va «Aqsomi ilm» boblarini ajratgan. Aql ilm tajriba bilan kamol topadi. Avloniy fikricha, ilm har ishda bizga rahnamo, ikki dunyo saodatiga noil etuvchi uluq ne'matdur. Ilmsiz kishi mevasiz daraxt kapidur. Uning eng yaqinlarigagina ema hatto o'ziga ham foydasi tegmas. Asar muallifi ilmni ikki qismga: ilmi diniy va ilmi faniyga ajratadi. Ammo u bu ismlar o'rtasiga to'siq qo'ymaydi, aksincha, diniy kishi bo'lish uchun ham hisob, handasa, tarix, hikmat, tib, kimyo, ziroat kabi fanniy ilmlarni o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Muallif fikricha, har bir millatning taraqqiy va taoliysi yoshlarning ilm va ma'rifatiga, hunar va san'atiga bog'liqdir. Ammo bizdagi: «Ajabo Qur'onimiz, Payg'ambarimiz o'qingiz, deb amr qilqon holda, bizlar na uchun harakat qilmaymiz, boshqa millatlarnig o'g'ullari qizlari kecha demay, kunduz demay, yoz demay, qish demay ilm yo'lida jonlarini fido qilub, qovushub, yugurushib, ko'zlarimizni qamashdurib turgan bir zamonda bizlar hamon uyqudan g'aflatdan, jaholatdan boshimizni ko'tarmaymiz, ibrat olmaymiz. Payqambarimiz: «Olim bo'l, ilm talab qiluvchi bo'l, yoki ilmni eshituvchi bo'l, hech bo'lmasa, shularga muhabbat qiluvchi bo'l, beshinchisi bo'lma, halok bo'lursan», - demadilarmu?»

Bundan ham kattaroq to'siq mustamlakachi ma'murlar bo'lib, o'lkada har qanday

ijobiy yangilikni, ayniqsa, maorif sohasidagi o'zgarishlarga, «usuli jadid» maktablarining xalq ma'naviyatiga kirib borishiga tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko'rsatar, ularga qarshi kurashda mutaassib ulamolardan usta'monlik bilan foydalanar edilar. Zamonaviy kasb-hunar maktablari, oliy o'quv yurtlari ochish, millatni ilm-ma'rifat kuridan bahramand qilishni mustamlaka ma'murlari xayollariga ham keltirmas edilar.

Ozgina bo'lsa-da, rus tili va aniq fanlardan ibtidoiy tushunchaga ega bo'lish uchun esa rus-tuzem maktablaridagina o'qish mumkin edi, ammo bu maktablarning asl mohiyati, maqsadi ma'lum edi. 1907 yilda Turkiston o'lkasiga sayohat qilgan Abdurashid qozi Ibrahimov bu masalaga alohida e'tibor beradi. A. Avloniy mana shu tariqa sabr, hilm, miqyosi nafs, intizom, vijdon kabi insoniy fazilatlari haqida chuqur ma'noli fikrlari bayon qiladi. Ammo Vatan haqidagi qarashlari yanada muhimroq, yanada e'tiborliroq. Vatan Ona kabi yagona, Ona kabi muqaddas. Bu mavzu nechanecha adabiyot va san'at ahllari e'tiborini o'ziga jalb qilgan. E'tibor bering, 1970 yillar boshida Erkin Vohidov «O'zbekim», Abdulla Oripovnnig «O'zbekiston» qasidalari o'zbek xalqi orasida shunchalari aks sado berdiki, hatto sho'ro mafkurachilarini talvasaga solib qo'ydi. O'zbekiston bo'ylab birorta to'yu tomosha yo'qki, bu ikki she'r to'lib-toshib o'qilmasa yoki qo'shiq qilib aytilmasa. Nega millat his-tuyqularini shunchalar junbushga soldi bu ikki she'r?! Ongimizga 100 yildan ortiq o'zga millatning o'zga vatanning «buyuk»ligini singdirib keldilar. Xalqimiz o'z millati va o'z Vatani haqida iliq bir so'zga intiq edi.

XIX asrning 90yillari oxirlarida rus-tuzem maktablarida o'qiydigan mahalliy millat bolalari uchun S. M. Gromeniskiyning uch kitobdan iborat «Kniga dlya chteniya» («O'qish kitobi») asari darslik sifatida nashrdan chiqarildi. N. Ilminskiy qarashlari zaminida yaratilgan ushbu darslikda Rusiyani, rus xalqini ulug'lovchi, Rusiyani buyuk vatan sifatida ta'rif-tavsif etuvchi o'nlab nazmiy va nasriy matnlar yerilgan edi. Bu darslikning shovinistik maqsadini jidad pedagoglari tushunib yetgan va millat farzandlarini vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratgan edilar. Bu hol ular yaratgan har bir darslikda, har bir ilmiy,

badiiy asarlarda yaqqol koʻzga tashlanadi. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston...» asarida «Vatanni suymak» degan bob bor. Unda yosh qalblarda oʻz Vatani Turkistonga nisbatan muhabbat tuygʻularini mavjga keltiruvchi shunday misralar bor:

Vatan, Vatan deya jonim tanimdan oʻlsa ravon,  
 Banga na qam, qolur avlodima oʻz Vatanim.  
 Gʻubora doʻnlsa qamim yoʻq vujud zeri vahm,  
 Choraki, oʻz Vatanim xokidur goʻru kafanim.  
 Tuqib oʻsan yerim ushbu Vatan vujudim xok,  
 Oʻlursa aslina rojeʻ boʻlurmi man gʻamnok.

Ushbu asar yozilgan davrni - Vatanimiz mustamlaka iskanjasida fojei ahvolga tushgan, kelgindilar oyoqi ostida toptalgan davrini toʻla his qilib, «Vatanni suymak» bobi oʻqilsa, Vatan istiqloli, ozodligi uchun inson hatto jonini ham fido qilishi kerak, degan qoya asar qatlariga singdirib yuborganligini sezish qiyin emas. Vatan tuproqi muqaddas: unda ajdodlarimizning xokilari bor unda kelajak nasllarimizning haqlari bor. Shuning uchun ham Vatanni oddiygina sevish mumkin emas, uning istiqboli uchun kuyunish, kurashish, kelguvchi avlodlarga toʻlatoʻkis, ozod farovon holda topshirish hissi ham mavjud. Abdulla Avloniy ona-Vatanga mana shunday yoniq qalb bilan munosabatda boʻladi.

«Turkiy guliston yohud axloq» asaridan bir kichik bob «hifzi lison» («Tilni muhofaza qilish») deb ataladi. hamma vaqt, hamma jamiyatda millatning mavjudligini, eʼtiborini belgilovchi koʻzgusi uning tili va adabiyotidir. Ulugʻ sanʼatkor shoir Abdulhamid Choʻlpon «Adabiyot oʻlsa, millat oʻlur» deb yozdi. «Adabiyot nadur?» maqolasida. har bir inson, birinchi navbatda, oʻz ona tilini mukammal bilishi, tilining ravnaqi, sofligi uchun kurashishi kerak. Asar muallifi oʻrinsiz oʻzga til soʻzlarini qoʻshib, «moshkichiri» kabi aralash-quralash ishlatishga keskin qarshi chiqadi. Avloniynig ona tiliga bunday qarashlari hozirgi kunimizda ham har gapiga, albatta, 2-3 oʻrischa soʻzni qoʻshib gapiruvchi yoki oʻris tilini durustroq bilmasa-da, oʻrischa gapirishni madaniyat belgisi deb,

biluvchi ba'zi bir yoshlarimizga nafaqat yoshlarimizga taalluqlidir: «har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgon oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmay millatning ruhini yo'qotmakdur. hayhot! Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursin kundan-kun unutmak va yo'qotmakdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulagani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukumatimiz bo'lg'on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi kerakli narsadur. Lekin o'z yerinda ishlatmak va so'zlamak lozimdur. Ziqir yoqi solub, moshkichiri kabi qilub aralash-quralash qilmak tilnnig ruhini buzadur».

Shuning uchun ham Abdulla Avloniynning ona tiliga nisbatan buyuk muhabbat bilan aytgan so'zlari to'g'ridan to'g'ri o'sib kelayotgan yosh (hatto hozirgi) avlodlarga qaratilgan edi:

Ey ona til, aziz qadrdonim,

Iltifoti ruhim, rahmonim.

Tug'dig'im kundan aylading ulfat,

O'lgunimcha ayilma, ey jonim.

Menga ilmu adab san o'rgatding,

Chin adib, muallim ilonim.

Millatning ruhini ko'targuchisan,

Ey muqaddas karamli sultonim.

Abdulla Avloniy atoqli metodist olim sifatida «Turkiy guliston...» asarida o'quvchilarning oqzaki nutqini o'stirish masalasiga, voizlik (notiqlik) sanatini egallashga alohida e'tibor qaratadi. Muallif fikricha, har bir o'quvchi ona tilida o'z fikrini aniq, ta'sirchan, shu bilan birga, chiroyli bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun esa o'quvchi olna tilining nozik, go'zal jihatlarini puxta egallagan bo'lishi kerak: «Umumiy milliy tilni saqlamak ila barobar xususiy oqiz orasidagi tilni (og'zaki nutqni U. D.) ham saqlamak lozimdur. Chunki so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurgon tarozisidur. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini

so`zlagan so`zidan bilurlar. «Quruq so`z quloqqa yoqmas», - demishlar».

Abdulla Avloniy «Turkiy guliston...» asarining «Yomon xulqlar» qismi 18 bobdan iborat. Muallif insonning bunday xulqlarini «saodati adabiyadan mahrum, hayoti jovidonimiz uchun masmum bo`lgan axloqi zamimalar...» deb ataydi. A. Avloni kishilarnig ham ijobiy xuldarini, ham salbiy xulldarini bayon qilib, kitobxonlar mulohazasiga havola qiladi. U «Bu sanalgan yomon xulqlarning fanoliqlarini, yuqorida sanagan yaxshi xulqlarning go`zalligini insof muvozanasi ila o`lchab, vijdon muhokamasi ila tahqiqlab, yaxshilarini tinglab amal qilmak yomonlarini onglab, hozir qilmak lozimdur», deydi.

A. Avloniy qazabning ikki xil xususiyatini bayon qiladi. Biri dushmandan o`zini, millatini mudofaa qilishda insonning qazabi muhim ahamiyatga ega bo`lsa, ikkinchisi birovni jabrzulm yo`li bilan ishlatish, odamlarga sovuq muomilasi bilan dahshat solishdan iborat bo`lgan salbiy xususiyatdir. hilm - yumshoq tabiatlilik bilangina g`azabning oldini olish mumkin. A. Avloniy bu haqda Imom Shofe`i havzratlarining so`zlarini keltiradi: «Qilich va nayza ila hosil bo`lmagan ko`p ishlar yumshoqlik va muloyimlik ila hosil bo`lur. /azabning zarari egasiga qaytur», - demishlar.

A. Avloniy asarning «Yomon xulqlar» qismida yana bir nihoyatda muhim masalaga e`tiborni qaratadi. Bu «Jaholat» va «Aqsomi jaholat» boblaridir. Jaholat nodonlikdan, ilmsizlikdan hosil bo`ladi. Insoniyatning eng g`addor dushmani jaholatdir. Asar muallifi jaholatni ikki qismga ajratadi: biri «jahli bosit» («oddiy jaholat»), ikkinchisi «jahli murakkab». «Jahli bosit» kasaliga muhtalo bo`lganlari biror narsani bilmaydilar va bilmaslikdilarini e`tirof etadilar. Bularning avomi nisbatan oson, ularni o`qitish, o`rgatish bilan bu maarazdan foruh qilish mumkin. «Jahli murakkab» kasaliga duchor bo`lganlar bilmagan narsalarini bilaman deb, dav`o qiladilar, ularni tuzatish ancha murakkab ish. Jahli murakkab qanchadanqancha ilm-fan, taraqqiyot fidoiylarini ta`qib-tazyiqqa, vatanjudolikka duchor etdi, Ulug`bekdek buyuk alloma, adolatli podshoh uning qurboni bo`ldi. «Jahli marakkab» namoyandalari millatni asriy qoloqlikda, jaholatda saqlashda mustamlakachilar uchun qurol vazifasini bajardilar. hatto «jahli murakkab» haqida

Munavvarqori Abdurashidxon o`g`li maxsus «Bizni(ng) jaholat jahli murakkab» nomli maqolasini yozdi. Unda muallif jaholatparast ulamolarni, qadimchilarni, ilm-ma`rifatdan, ta`lim-tarbiyadan yiroq eski maktab-madrasalarni qattiq tanqid qildi.

A. Avloniy har bir axloqiy kategoriyani tahlil va talqin qilar ekan, bevosita o`z davri muammolari bilan bog`laydi, shuning uchun ham asarda davr nafasi ufurib turadi. Mustamlaka Turkistonning fojiali ahvoli, erksizligi, chor hukumatining o`lkada olib borayotgan dahshatli iqtisodiy siyosati asar qatlariga mohirona singdirib yuborilgan: «Yevrupoliklar o`zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o`zimizga yigirma besh tiyinga soturlar. Ammo biz osiyoliklar, xususan, turkistonliklar dumba sotub, chandir chaynaymiz, qaymoq berub, sut oshaymiz, non o`rniga kesak tishlaymiz. So`zning qisqasi hozirgi zamonga muvofiq kishi bo`lmak uchun ilm va ma`rifat ila barobar iqtisod, insof, tuganmas say`, bitmas qayrat lozimdur».

**Ikkinchi bob yuzasidan xulosalarimiz** shuni ko`rsatadiki, Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini o`z zamondoshlari muallimlarning taklif va istaklarini nazarda tutgan holda, garchi og`ir bo`lsada, Shayx Sa`diy uslubida yozmoqni muqaddas deb bildi. Bu asar yaratilgan davr va ijtimoiy vaziyat hisobga olinganda, bu ish-buyuk jasorat edi! Abdulla Avloniy millat yoshlariga o`rnak bo`ladigan bu ilmi adab haqidagi asari orqali o`zbek adabiyotida o`ziga abadiy haykal qo`ya oldi.

## UMUMIY XULOSA

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham o'zbek milliy maktabini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois uning ijodiy merosini chuqur o'rganishga qiziqish ortib bormoqda.

Ushbu bitiruv ishining yaratilishi kuchli hayotiy ehtiyoj, ma'naviy zarurat samarasidir. Jadidlar milliy ta'limning zamini sifatida ona tili o'qitish masalasiga e'tiborni kuchaytirdilar, chunki milliy ruh, milliy ma'naviyatni sut bilan kirgan...» deganlaridek, faqat ona tili orqaligina singdirish mumkin edi. Bu jadid mutafakkirlari pedagogik qarashlarining tub maqzini tashkil qilar edi. Mahalliy millat bolalari uchun ochilgan davlat tasarrufidagi rus-tuzem maktablarida musulmon tili, dini va tarixini o'qitish masalasiga maxsus e'tibor berilmadi. O'z tili, dini, ma'naviyati, tarixidan xabarsiz kichik ma'murlar tarbiyalab yetishtirish ruslashtirish siyosatinnig birinchi va hal qiluvchi bosqichi edi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdarashidxon o'g'li, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniylari rahnamoligida ochilayotgan va xalq o'rtasida kata e'tibor qozonayotgan «usuli jadid» maktablari mohiyat e'tiboriga ko'ra rus-tuzem maktablariga qarshi qaratilgan edi. Abdulla Avloniy taniqli jurnalist, jamoat arbobi, shoir dramaturg, yozuvchi, tarjimon va ulkan ma'rifatparvar muallimdir. U juda ogir, suronli davrda ijod qilib, qisqa umri davomida ma'rifat, maorif va madaniyat masalalari bilan keng shug'ullanib, bir necha jildga jo buladigan asarlar yozdi. U kelajak avlodning ma'naviy olamini kengaytirish borasida tinmay g'amxo'rlik qilib, «Adabiyot yoxud milliy she'rlar», «Turkiy guliston yoxud axloq», «Ustodi avval», «Muallimi soniy» kabi darslik va qo'llanmalar hamda turkistonda sahna san'atini keng targ'ib qilish ishida ham jonbozlik ko'rsatib, «Advokatlik osonmiq», «Pinak», «Biz va siz», «Ikki muhabbat», «Portugaliya inqilobi» kabi dramatik pesalar yaratdi.

Avloniy «1894 yildan boshlab she'r yozishga tutingan» bo'lsa-da, u she'rlar bizgacha yetib kelmagan. Uning 1917 yilgacha bo'lgan poetik merosi, asosan, «Adabiyot» nomli 6 qismdan iborat she'riy to'plamlarida jamlangan. Ularning har biri 1909-1917 yillar oralig'ida alohida-alohida bir necha marotaba nashr qilingan.

Shuningdek, o'sha davr vaqtli matbuoti sahifalarida ham shoir she'rlarini ko'plab uchratamiz. Bu she'rlarning deyarli hammasi mazkur to'plamlarga kiritilgan.

Abdulla Avloniy butun vujudi bilan muallim edi. Uning o'zi ham yuqori sinf talabalariga jo'g'rofiya va tarixdan ham boshlang'ich sinflarga o'qish, ona tilidan saboq berar edi. Misr, Turkiya, Qozon va boshqa joylardan olib kelgan turli yangi-yangi kitoblarini yuqori sinf o'quvchilariga hamda eng yaxshi o'qiganlarga va muallimlarga tortiq qilardi. U ne qilsa ulug' Turkiston uchun va uning kelajagi bo'lgan yoshlar uchun qilardi. Milat bolasi savodini chiqarish, ularning dunyo ilmlaridan xabardor bo'lishi uchun butun vujudi bilan harakat qildi. Bu ulug' otabobolarimiz bugungi kun yoshlari uchun, shubhasiz, o'rnak va ibratdir!

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'grisida. // Prezident Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 13-yanvar. – №9. – B. 1.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.//Toshkent - 2017, "O'zbekiston", 593 b
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. -Toshkent: "O'zbekiston", 1998.- B.31.
4. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"./ Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: "Sharq", 1997, 20-30-betlar.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan) / Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: "O'zbekiston", 1997, 31-63-betlar.
6. O'zbek tili ta'limida pedagogik texnologiyalarning o'rni. "O'zbek tili" doimiy anjumani o'n birinchi yig'ini materiallari. - Toshkent. -B.288.
12. Abdullayeva Q, Rahmonbekova S. Diktantlar to'plami (1-4-sinflar uchun). - Toshkent: "Turon-Iqbol", 2006. -B.176.
13. Abdullayeva Q va boshqalar. O'qish kitobi. 2-sinf uchun.-Toshkent: "O'qituvchi", 2006.-B.192.
14. Abdullayeva Q va boshqalar. 2-sinfda o'qish darslari.-Toshkent: "O'qituvchi", 2004.-B. 214.
15. Abdullayev Y. Hamrohim. Yangi alifbo va imlodan qyullanma.- Toshkent: "O'qituvchi", 1996.B.- 96.
16. Abdullayeva Q. Alifbe: Darslik.- Toshkent: "O'qituvchi", 1987.B. -174.
17. Asqarova M va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. - Toshkent: "O'zbekiston", 2001.- B. 160.
18. Ashrapova T., Odilova M. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, "Sharq", 1984.-B.236.
19. Ahmedova N. Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish usullari. (Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari). Toshkent, "Sharq", 1999.-B.128.
20. Boshlang'ich ta'lim. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi. Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lim Vazirligi axborotnomasi 7-maxsus son. - Toshkent: "Sharq", 1999. -B. 479.
21. Boshlang'ich ta'lim fanlari bo'yicha standart tekshiruv ishlari to'plami. - Toshkent: "Ma'rifat-Madadkor", 2002. -
22. Takomillashgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Boshlang'ich ta'lim" jirnali. - Toshkent, 2005, 5-son.

23. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: "Fan", 2006. -B.261.
24. Turdiyev N. Uzliksiz ta'lim uchun informatikadan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy-pedagogik asoslari. -Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. - B.160.
25. Fuzailov S, Xudoyberganova M. Ona tili 3-sinf uchun darslik, 7-nashri.- Toshkent:O'qituvchi, 2004. -V. 144.
26. Fuzailov S, Xudoyberganova M. Ona tili 3-sinf uchun darslik, 9-nashri.- Toshkent:O'qituvchi, 2007. -V. 144.
27. Fuzailov S, Xudoyberganova M. Ona tili 3-sinf uchun darslik, 11-nashri.- Toshkent:O'qituvchi, 2010. -V. 144.
28. Hamroyev A. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish usuliyoti. -Buxor: Buxoro davlat universiteti, 2007. -B.168.
26. Hamroyev A. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish. - Toshkent: "Fan", 2007. -B.108.
29. Matjonov S, G'ulomova X, dolimov Z. 4-sinfda o'qish darslari. O'qituvchi kitobi. - Toshkent: "Yangiyul poligraf servis", 2007. - B.192.
30. Matchonov S, Shojalilov A, G'ulomova X, Sariyev Sh. O'qish kitobi . 4-sinf uchun. - Toshkent: O'qituvchi, 2007.-V. 280.
31. Ne'matova N., G'ulomov A., Abdurimova M. Ijodiy matn ustida ishlash. - Toshkent, "O'qituvchi", 1997. -V.48.
32. Qosimova Q. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'zlashtirish. - Toshkent: "CHO'lpon", 1964.-B.86.
33. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: "O'qituvchi", 1985. -V. 216.
34. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: "O'qituvchi", 1985. -V. 216.
35. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: "Mohir", 2009. -V. 352.
36. Qosimova K., Fuzayilov S., Ne'matova A. Ona tili 2-sinf uchun darslik, 6-nashri.- Toshkent: "Cho'lpon", 2003. -V. 112.
34. Qosimova K, Fuzailov S, Ne'matova A. Ona tili 2-sinf uchun darslik, 7-nashri.- Toshkent: "Cho'lpon", 2004. -V. 112.
35. Qosimova K, Fuzailov S, Ne'matova A. Ona tili 2-sinf uchun darslik, 9-nashri.- Toshkent: "Cho'lpon", 2004. -V. 128.
36. Qosimova K. 5-sinfda lug'at ustida ishlash. - Toshkent: "O'qituvchi". - B.88.
37. Omilxonova M. Maktabda ona tili sintaksisini o'rgatish. - Toshkent: O'qituvchi, 1991. - B.192.
38. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000. -B. 98.
39. Panasenkov Ye.D, Umarov E.A. O'zbek tilining imlo lug'ati. - Toshkent: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 1988. -B. 186.
40. Roziqov O, Mahmudov M, Adizov B, Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. - Toshkent: Yangi asr avlod, 2005. -B.238.
41. Rahmatullayev Sh, Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. - Toshkent: "O'qituvchi".- B. 269.

42. Rafiyev A. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. - Toshkent: "O'qituvchi", 2003.-B.138.
43. Sirojiddinov R. Grammatik topishmoqlar. - Toshkent: "O'qituvchi", 1995.- V. 293.
44. Safarova R, Inoyatova M, Shokirova M, Shermatova L. -Alifbe.Umumiy o'rta Ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik.-Toshkent: "Ma'naviyat", 2010.- V. 180.
45. Safarov O. Boychechak. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983.- B.336.
46. Safarov O. O'zbek xalq bolalar o'yinlari. - Toshkent: Fan, 2004. -B.196.
47. Safarov O. O'zbek bolalar o'yin folklori tabiati. - Toshkent: Fan, 2008. -B.118.
47. Til ta'limi bosqichlarida uzviylikni ta'minlashning ilmiy-amaliy muammolari. "O'zbek tili" doimiy anjumani o'ninchi yig'ini materiallari. - Toshkent, 2009. - B. 269.
48. To'xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. Ch.3. - Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2006, 63-66- betlar.
49. Tolipov O'.Q, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: "Fan", 2006. -B.262.
50. Umarova M, Hakimova Sh. O'qish kitobi. 3-sinf uchun.- Toshkent: "Ilmiy dunyosi", 2006.-B.240.
51. Umarova M. 3- sinfga o'qish darslari.- Toshkent: "O'qituvchi", 2004.-B.224.
52. Xolmatova D. Dunyoda barkamol ko'p. / "G'uncha" jurnali, №10, 2008, 10-bet.
53. Xudoyberganova M, Fuzailov S, Muxtorova M. 3-sinfdan ona tili darslari. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. - Toshkent: "O'qituvchi", 2004. - 128 bet.
54. G'afforova T, Shodmonov E, G'ulomova X. Ona tili 1-sinf uchun darslik.- Toshkent: "Sharq", 2005. -V. 112.
55. G'affarova T va boshqalar. 1-sinfda o'qish darslari.- Toshkent: "Sharq", 2003.-B. 98.
56. Ikromova R, G'ulomova X, Yuldosheva Sh, Shodmonqulova D. 4-sinfda ona tili darslari. - Toshkent: "O'qituvchi", 2007. - B.192.

## MUNDARIJA

**Kirish.**----- 2 -b

**I. BOB. ABDULLA AVLONIY ILK MAKTAB DARSLIKLARI  
YARATUVCHISI**

I.1 Abdulla Avloniyning hayot faoliyati va ijodiy merosi.....9-b

I.2 Yozuvchi asarlarining badiiy xususiyatlari.....20-b

**II BOB. ILK MAKTAB DARSLIKLARI YARATILISH TARIXI, PEDAGOGIC  
ASOSLARI**

II.1 O'zbek alifbesining yaratilish tarixi va muammolari.....36-b

II.2 A.Avloniyning Ilk maktab darsliklarida pedagogik qarashlar.....56-b

**UMUMIY XULOSALAR**-----65-b

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**-----67-b